O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

O.R.NAZAROV, O.SH.KANIMKULOV, R.A.NE’MATOV

O‘ZBEKISTON DAVLATCHILIGI TARIXIDA QO‘NG‘IROTLAR SULOLASINING TUTGAN O‘RNI

MONOGRAFIYA

Guliston - 2022

UO‘K: 93/94(575.1)

KBK: 63.3(5O‘zb)

Nazarov O., Kanimkulov O., Ne’matov R. “O‘zbekiston davlatchiligi tarixida Qo‘ng‘irotlar sulolasining tutgan o‘rni” monografiya.-Guliston, “LESSON PRESS” nashriyoti, 2022.-92 b.

Mazkur monografiyada Xiva xonligida Qo‘ng‘irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot to‘g‘risida yangicha nuqtai nazardan yondashilgan holda tahlil qilishga harakat qilingan. Shu bois biz ishimizda Qo‘ng‘irotlar sulolasidagi XIX asr oxiri - XX asr boshlarida, ya’ni chor Rossiyasi mustamlakasi davrida sulolaning siyosiy hayotni yoritib berishni maqsad qilib qo‘ydik.

Yana shuni aytib o‘tish joizki, bugungi kunda o‘zbek davlatchiligi tarixini yoritish tarix fanining yetakchi muammosi sifatida tan olingani barchamizga ma’lum. O‘zbek davlatchiligi tarixida Qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligi davri o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, juda qisqa ma’lumotlar keltirilgan. Shuning uchun ham ishimizda bu sulola vakillari hukmronligi davrini har tomonlama tahlil qilishga harakat qilingan.

Shu bois, mazkur monografiya talabalar uchun ijtimoiy-gumanitar fanlarda xususan “O‘zbekiston davlatchilik tarixi”, “O‘zbekiston tarixi”, “Jahon tarixi”, “Falsafa” fanlarida foydalanishi, hamda magistrlar, tadqiqotchilar, shuningdek, xonliklar tarixi bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharir:

M.T.Xodjiyev -T.f.d. prof

Taqrizchilar: U.Qilichev-dotsent

O‘.Erbutayeva-dotsent

Mazkur monografiya Guliston davlat universiteti Kengashining

2022-yil 31-maydagi 10-sonli qaroriga asosan chop etildi.

ISBN 978-9943-8387-5-8

© O.R.NAZAROV, O.SH.KANIMKULOV, R.A.NE’MATOV

© “LESSON PRESS” nashriyoti, 2022

KIRISH

Tarixni vaqtdan ajratib bo‘lmaydi. U vaqt, muddat va zamonda yuz bergan va ma’lum bir makonda vujudga kelgan voqea-hodisalar birligidir. Anna shu zamon va makonda shakllangan an’analar, turlicha qarashlar, ma’naviy-ruhiy hodisalar, ijtimoiy munosabatlar zamirida xatti-harakatlar o‘z izini qoldiradi. Harakatlar zamirida esa ma’lum maqsad va intilishlarni o‘zida mujassam etgan voqealar yotadi. Tarixning o‘z iga xosligi, ijtimoiy hodisaligi ma’lum bir davr, zamon va makon mohiyatini o‘zida mujassam etganligi bilan, uning butun fenomenini belgilashi bilan baholanadi. Boshqacha qilib aytganda, uning mazmun-mohiyati, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hodisa sifatidagi o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Shu bois mazkur monografiyamizda O‘zbekistondavlatchiligining shakllanishi va uning taraqqiyot bosqichlariga e’tibor qaratish orqali Qo‘ng‘irotlar sulolasining O‘zbekiston davlatchiligi tarixida tutgan o‘rnini tahlil qilishni maqsad qilgan holda yurtimizda dastlabki davlatchilikning yuzaga kelishini tarixiy shart-sharoitlarini tahlil qilishga e’tibor qaratishni lozim topdik. Shu tariqa yurtimizda ilk davlatchilikning shakllanishi dastlab mil.avv. IV asrlarga kelib ahamoniylarning markaziy hokimiyati kuchsizlana boshlagan, zulm asoratida bo‘lgan xalqlar o‘z mustaqilliklariga yerishish imkoniyati paydo bo‘lishi natijasida, Markaziy Osiyoda o‘z mustaqilligiga birinchilar qatorida Xorazm vohasi yerishganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Insoniyat tarixida ilk davlatchilik uyushmalarining yuzaga kelish tarixiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, jahonning turli mintaqalarida ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi jarayonida ilk davlat uyushmalarining yuzaga kela boshlanganligini kuzatishimiz mumkin.

Ilk davlat uyushmalarining paydo bo‘lishi o‘z navbatida dehqonchilikning va chorvachilikning paydo bo‘lishi, hunarmandchilikning vujudga kelib taraqqiy etishi, mehnat qurollarining takomillashishi mehnat unumdorligining oshishiga olib kelganligi natijasida urug‘ jamoasi hududiy qo‘shni jamoasiga aylana borishi

tufayli vaqt o‘tib aholi joylashgan yerlarni, dehqonchilik bilan mashg‘ul vohalarni dushmandan himoya qilish, jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini huquqiy rivojlantirish va nazorat qilish zarurati ilk davlat birlashmalari rivojlanishining boshlanishiga olib kelganligi tufayli miloddan avvalgi 4-ming yillikda Mesopotamiyada, mil. avvalga 3-ming yillik boshlarida Misrda ilk davlatlar paydo bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Mustaqillikdan keyin O‘zbekiston tarixiga doir voqea va hodisalarning tahliliga yangicha yondashish tufayli Markaziy Osiyoda, jumladan, O‘zbekiston hududida dastlabki davlatlarining tashkil topishi tarixiga 3-ming yil bo‘ldi, degan ilmiy xulosaga kelishga oid manbalar yetarlicha topiladi.

Birgina mil. avv. 1-ming yillikning boshlarida Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan viloyatlarida ilk davlat birlashmalari paydo bo‘la boshlaydi. Qishloqlar kengayib shaharlarga aylanib borar ekan, bu shaharlar eng qadimgi viloyatlar va davlat uyushmalarining ma’muriy markazi sifatida shakllana bordi.

Agar biz “Avestoda”gi ma’lumotlar, Gyerodot va Gekatey asarlari (Katta Xorazm), shuningdek, Ktesiyning, Qadimgi Baqtriya podsholigi haqidagi ma’lumotlari Markaziy Osiyoda ilk davlat uyushmalarining uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilar bu davlatlarining shakllanish jarayonini ahmoniylargacha bo‘lgan davrda deb hisoblaydilar va mil. av. IX-VII asrlar deb belgilaydilar.

Bundan tashqari Katta Xorazm davlati tarkibiga Amudaryoning quyi oqimidagi shimoliy yyerlar, Murg‘ab vahosi va Parfiya hududlari, Baqtriya davlati tarqibiga esa hozirgi Surxandaryo, Tojikistonning Amudaryoga yoki yyerlar va Shimoliy Afg‘oniston hududlari, Sug‘diyona — Zarafshon daryosidan suv ichgan yyerlar va Qashqa vohasi hududlari kirgan.

Tarixdan ma’lumki Markaziy Osiyo xalqlari mil. avv. VI-IV asrlarda, ya’ni qarayib 200 yil mobaynida Yeron ahamoniylari hukumronligi ostida yashashga majbur bo‘ldilar, faqat mil.avv. IV asrlarga kelib ahamoniylarning markaziy hokimiyati kuchsizlana boshlagan, zulm asoratida bo‘lgan xalqlar o‘z

mustaqilliklariga yerishish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Markaziy Osiyoda o‘z mustaqilligiga birinchilar qatorida Xorazm vohasi yerishdi.

Keyinchalik Iskandar Zulqarnayn Yeronning asosiy viloyatlarini bosib olgach, mil.avv. 329 yilning bahorida Hindikush tog‘idan oshib Markaziy Osiyo hududlariga kirib keladi. Bosqinchilarga qarshi umum xalq urushi e’lon qilgan baqtriyaliklar, so‘g‘diyonaliklar va skiflar uch yil davomida dushman bilan mardonavor jang qiladilar.

Xalqimiz yunon bosqinchilariga qarshi kurashiga mahalliy sarkardalardan bo‘lgan Spitamen boshchilik qiladi. Mil.avv. 327 yilning oxirlarida Sug‘diyona Iskandar tomonidan batamom bosib olinib, qo‘zg‘olon bostirildi.

Ma’lum vaqt o‘tib siyosiy jarayon tufayli mil.avv. IV asr oxirida Iskandar saltanati uch mustaqil davlatga: Makedoniya, Misr, Suriya va sharqqa bo‘linib ketadi. Suriyadan to Markaziy Osiyo Hindistongacha Makedoniyalik Iskandarning eng ishonchli sarkadarlaridan biri Salavkaga tegadi. O‘rta Osiyo xalqlarining mil. avv. 312 yldan 250 yilgacha bo‘lgan tarixi salavkiylar tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mil. avv. 250 yilga kelib, Markaziy Osiyoda salavkiylar davlatidan ikkita-dastlab Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya davlatlari ajralib chiqadi. Yunon-Baqtriya davlatlarining asosi Baqtriya bo‘lib, ba’zi hokimlar davrida Xindistonning shimoliy-g‘arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o‘rtasidagi katta yyerlar qo‘shib olinadi. Davlatning poytaxti Shimoliy Afg‘onistondagi Balx shahri edi.

Yunon-Baqtriya m.a. II asrning uchinchi choragiga kelib Sharqiy Turkiston orqali kirib kelgan yuechji va sak qabilalari hujumi natijasida butunlay inqirozga uchradi. Bundan tashqari hozirgi Turkmaniston va Yeronning bir qismini o‘z ichiga olgan qadimgi Parfiya davlati mustaqil davlat va impyeriya sifatida 500 yildan ziyodroq yashagan. Mil. avv. II-I asrlarda Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan davlatlarining yana biri bu Parkana davlati bo‘lib u Xitoy manbalarida Davon deb yuritiladi. Xitoy ma’lumotlariga ko‘ra mil. avv. II asrda Farg‘onada

300 ming aholi yashagan. Vahoda shaharlar ko‘p bo‘lib, poytaxti Yershi shahri (hozirgi Marhamat tumani) edi.

Davon qishloq xo‘jaligi yuksak darajada rivojlangan mamlakat edi. Shuningdek mil. avv. III asrning boshlarida paydo bo‘lgan yana bir davlat Qang‘ davlati edi. Bu davlatning hududi dastlab Sirdaryoning o‘rta oqimidagi yyerlardan (Toshkent vohasi hamda unga tutash tog‘ va cho‘l zonalari) iborat edi. Keyinchalik mil avv. II-I asrlarda qang‘liklar Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi yyerlarni va Xorazmni o‘zlariga bo‘ysindiradilar.

Shuning mil. avv. I va milodiy II-I asrlarda Qang‘ davlati iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha rivojlangan davlat darajasiga yetdi. Qang‘ davlatining asosiy aholisi o‘troq va yarim o‘troq bo‘lib uning hududida ko‘chmanchi chorvadorlar ham yashar edi. O‘troq aholi asosan vodiyda yashab, dehqonchilik, bog‘dorchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanib kelgan. M.a. II-I asrlarda O‘rta Osiyo hududidagi yana bir mustaqil davlat Toxariston edi. Toxar qabilalari Baqtriyada Yunon-Baqtriya hukmdorligini tugatgandan so‘ng uni shunday nomlashdi. Toxarlar qisman ko‘chmanchi bo‘lib qolavyerishgan. Ularda yagona davlat bo‘lmaganidek, oliy hukmdor ham yo‘q edi, har bir shahar o‘z hokimi tomonidan boshqarilgan.

Xitoy manbalarida yuejchi deb nomlangan qabilalar miloddan avv. 140-130 yillarda ular Yunon-Baqtriyaga kirib kelishdilar. Ular bu beshta hokimlikka birlashib yashadilar. Tez orada yuejchi qabilalarining taz’yiqi ostida Yunon-Baqtriya davlati parchalanib ketishi natijasida mil. avv. 1-asr oxirida milodiy 1 asr boshida bu yyerda ya’ni Baqtriyada yuejchi qabilasining birinchi hukumdori Kujula Kadfiz bo‘lgan Kushon davlati tashkil topdi. Miloddiy 1 asrga kelib Kushon davlati o‘z ahamiyatiga ko‘ra antik davr Xitoydagi Xan davlati, Parfiya podsholigi, Rim saltanati bilan raqobatlasha oladigan qadimgi dunyoning eng qudratli va zabardast davlatlaridan biri sifatida tashkil topdi. Kujula Kadfizdan so‘ng uning o‘g‘li Vima Kadfiz davrida mamlakatda pul islohati o‘tkazilib oltin tangalar zarb qilina boshladi.

Kushon podsholari ichiga eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. Uning hokimlik davrida Kushonlar saltanati yanada gullab yashnadi. Mamlakat poytaxti Peshovar atrofida edi. Mamlakatining hududi Shimoliy Hindiston, Afg‘oniston, Markaziy Osiyoda ko‘pgina viloyatlar, sharqiy Turkistondan iborat edi. Kanishkadan so‘ng Vasishka podsholigi davrida kushonlar saltanati, inqirozga uchray boshladi. Kushon davrida Markaziy Osiyoning deyarli barcha viloyatlari qishloq xo‘jaligini yaxshi o‘zlashtirib olgan edilar, chorvachilik ham rivojlanadi. Hunarmadchilik faqat yirik shaharlarda emas kichikroq manzilgohlarda ham rivojlandi. Kushonlar davrida savdo-sotiq ichki va tashqi savdo ayniqsa rivojlandi. IV asrda O‘rta Osiyoda Kushon podsholigi inqirozga yuz tutishi natijasida boshqa qabilaviy vakillari xunlar yoki xionitlar yetakchi rol o‘ynay boshladi.

Va nihoyat V asr o‘rtalarida esa O‘rta Osiyo hududida yangi qudratli davlat Eftaliylar podshohligi shakllanishi oxiriga yetdi.

Manbalarda baho byerilishicha, 457 yildan boshlab eftaliy podshohi Vaxshunvor Chog‘aniyon, Toxariston va Badaxshonni o‘ziga bo‘ysindirgan. Massagetlar avlodi — eftalitlar kushonlar siyosatini davom ettirib, O‘rta Osiyo, sharqiy Yeronning bir qismi, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkistonni xalqlarini yagona davlatga birlashtirdilar. Eftaliylar davlati Markaziy Osiyo xalqlari tarixida muhim o‘rin tutib, keyinchalik o‘z o‘rnini 563-567 yillardagi kurashidan so‘ng tarix maydonidagi yangi siyosiy kuch-Turk xoqonligiga bo‘shatib byerdi. Turk xokonligi tarkibiga Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston va Kaspiy dengizigacha bo‘lgan O‘rta Osiyo hududlari kirar edi.

Keyinchalik 588 yilda Yerondagi Sosoniylar davlati va turk xoqonligi lashkarlari orasida jang bo‘lib, unda turklar mag‘lubiyatga uchradilar. Shundan so‘ng Turk xoqonligi sharqiy hamda g‘arbiy qismga bo‘linib ketdi.

Va nihoyat VII asr o‘rtalarida yirik Arab xalifaligi davlati tashkil topdi. Arab xalifaligi VIII asr boshlarida butun Movarounnaxrni bosib oldi. Arab istilosi bilan birga bu yyerga islom dini ham kirib keldi. VIII asrning oxiri IX asr boshlarida Arab xalifaligi chuqur siyosiy inqirozga uchradi. Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan vaziyat xalifalikni sharqiy viloyatlarni va Movarounnaxrni idora

qilishni mahalliy zodagonlar vakillari Toxoriylar va Somoniylarga byerishga majbur qildi. Ular tez orada xalifalikdan mustaqil siyosat yurita boshladi. Somoniylar Movarounnaxrni boshqarishda mahalliy an’analarga asoslanadilar. Ular dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoni rivojlantirishni, soliq tizimini tartibga solishni mamlakatni boshqarishda shariat qonunlariga amal qilishni davlat vazifasi darajasiga ko‘tardilar. Ismoil Somoniy davrida davlat tizimini mustahkamliligiga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Natijda qadimgi sharq davlatchiligi an’analariga asoslangan markazlashgan boshqarish tizimi yaratildi.

Narshaxiyning ma’lumotlari bo‘yicha, Somoniylar davlatining markaziy boshqaruvi 10 devondan iborat bo‘lgan. X asr oxirlarida Somoniylar davlati qulab, Movarounnaxrda hukmronlik Qoraxoniylar qo‘liga o‘tdi. Qoraxoniylar davlatni el-yurt va viloyatlarga bo‘lib boshqardilar.

Qoraxoniylar davlatning boshlig‘i Tamg‘achxon ya’ni xonlar xoni yoki Qoraxon-ulug‘ xon deb yuritilgan. Qoraxoniylar davrida yyer egaligining ikkita shakli keng avj oldi. XII asrning ikkinchi yarmida Movarounnaxrda Qoraxoniylar davlati inqirozga yuz tutib, uning o‘rnida harbiy turk sarkardalari tomonidan boshqariladigan mayda feodal o‘lkalar paydo bo‘ldi.

Va nihoyat O‘rta Osiyoning janubiy g‘arbidagi qudratli Saljuqiylar davlati XII asr o‘rtalarida zaiflasha boshladi. Yuzaga kelgan siyosiy vaziyatda Xorazmshohlar mamlakati kuchaya boshladi. Xorazmshohlar unvonini XI asr oxirida Qutbiddin Muhammad tiklagan edi. 1127-1156 yillarda hukmronlik qilgan Otsiz davrida Xorazm kuchli davlatga aylandi. Uning vorislari El Arslon (1156-1172) va Olovuddin Takash (1172-1200) davrida Xorazm yyerlari yanada kengayib u sharqdagi qudratli davlat bo‘ldi. Va nihoyat Xorazmshoh Muhammad davrida (1200-1220) Xorazmga butun Movarounnaxr qo‘shib olindi. Shu tariqa vohada davlatchilikning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilishini e’tiborga olgan holda vohada Qo‘ng‘irotlar sulolasining vakillari faoliyatiga kengroq to‘xtalib o‘tishni lozim topdik. Qo‘ng‘irotlar qabilasidan bo‘lgan inoqlar XVIII asrning 60-yillaridan boshlab Xivada shahar boylari va

ruhoniylarning yordamida katta lavozimlarni egallab oldilar. 1770 yildan boshlab Xiva xonligida Qo‘ng‘irotlar sulolasining hukmronligi boshlanib, Xiva xonligining Sho‘rolar tomonidan tugatilishigacha davom etadi. Mana shu davr ichida hukmronlik qilgan xonlar siyosatini, xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot qirralarini o‘rganib, Qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligiga xolisona baho byerishni taqazo qiladi. O‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganishga bugungi kunda katta e’tibor byerilishi mavzuning dolzarbligini belgilab byeradi. Zero, «o‘z tarixini bilgan, undan ruxiy quvvat oladigan xalqni engib bo‘lmaydi. Biz xaqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur»[1], deb ta’kidlagan edilar Birinchi Prezidentimiz.

O‘zbek davlatchiligi tarixida Qo‘ng‘irotlar sulolasining o‘rnini ochib byerish maqsadida, quyidagi vazifalarni hal qilishga harakat qilamiz:

- Qo‘ng‘irotlar sulolasi davri tarixining tarixiy manbalarda yoritilishini tahlil qilish;
- Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotga baho byerish;
- Qo‘ng‘irotlar sulolasidan bo‘lgan xonlar davrida Xiva xonligidagi madaniy hayotni tasvirlash;
- Qo‘ng‘irotlarning o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘rnini ochib byerish.

Qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligining o‘zbek davlatchiligi tarixidagi tutgan o‘rni haqida maxsus o‘rganilgani yo‘q. Bugungi kunga kelib bu masala ayrim yangi avlod adabiyotlarida yoritib kelinmoqda. Biroq juda qisqa tarzda, umumiy baho byerilmoqda.

Jumladan, Azamat Ziyoning “O‘zbek davlatchiligi tarixi” nomli monografiyasida, O‘zR FA Tarix instituti jamoasi tomonidan chop etilgan

[1] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.:Шарқ, 1998. 11 б.

“O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ochyerklari” kitobida, hamda Matniyozov M., A.Sotliqovlarning “jahon tarixi va madaniyatida Xorazm” kitoblarida umumiy tavsifnoma byerish bilan cheklangan.[2]

Birmuncha to‘liq ma’lumotlar Urganch davlat univyersiteti olimlarining asarlarida uchraydi. Ular o‘z ishlarida Qo‘ng‘irotlar qabilasidan chiqqan xonlar, ularning hukmronlik yillarida Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotni yoritib byerishga harakat qilganlar.[1]

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ko‘pincha Sho‘rolar davrida yozilgan bo‘lib, ular o‘sha zamonning mafkurasiga asoslangan holda yozilgan. Bu adabiyotlar sirasiga A.L.Kunning “Заметки о Хивинском ханстве”. maqolasi (Туркестанские ведомости. 1878. №40.), I.V.Pogorelskiyning “Очерки экономической и политической истории Хивинского ханства в конце XIX -начале XX в.” (L.:LGU, 1968), G.M.Bilalovning “Из истории культур и просвешения в Хорезме” (Ургенч, 1957) kabi asarlar kiradi. Bir muncha davrimiz talabiga javob beradigan ma’lumotlar Y.G.Gulyamovning “Памятники города Хивы”. (УзФАН. Серия 1. История, археология. Вып.3.-Т.,1941), I.M.Jabbarovning “Городское ремесло узбеков Хорезма в конце XIX -начале XX вв.” (M., 1954.) asarlarida mavjud. Ularda Xorazm madaniyati va aholi turmush tarziga oid muhim ma’lumotlar keltirilgan. Mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlardan “Insoniyatning ilmiy va madaniy myerosi - uchinchi ming yillikka.” mavzusidagi Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro simpozium tezislari(T.,1997), Ma’mun akademiyasi olimlari tomonidan yaratilgan «Xorazm tarixi» (Urganch,1997) kabi asarlar mavzuni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yana Sho‘rolar davrida yozilgan adabiyotlardan G.A.Pugachenkova, L.I.Rempelning “Выдающиеся

[2] Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи.- Т., 2000; Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари.- Т., 2001; Матниезов М., Сотликов А. Жахон тарихи ва маданиятида Хоразм.- Урганч, 1999.
[1] Хоразм тарихи. 2 жилд.- Урганч, 1997;
Болтаев А. Хива хонлари шажараси.- Урганч, 1997. қўлёзма

памятники архитектуры Узбекистана”(Т.,1958) alohida ko‘rsatib o‘tish kyerak.

XX asr birinchi yarmiga oid adabiyotlarda hamda Sho‘rolar davri asarlarida Rossiyaning Turkistonda va xonliklarda ijobiy ta’sir o‘tkazgani qayd etilgan. Albatta bu adabiyotlarda bizga kyerakli ma’lumotlar ham uchraydi. Ayniqsa, T.Qori-Niyozovning “Очерки культуры Советского Узбекистана” (М.,1955), G.M.Bilolovning “Из истории культуры и просвешения в Хорезме” (Urganch, 1957) kabi asarlardan kerakli material topib, hozirgi zamon talabi asosida tahlil etib, masalani yoritib berishga urinib ko‘rdik. Bundan tashqari chor Rossiyasi mustamlakasi davrida rus olimlarining va ma’murlarining asarlaridan ham foydalandik. Jumladan, Xiva xonlari hujjatlari Sho‘rolar davrida olimlar tomonidan o‘rganilib, maxsus asarlar yaratilgan. Bular jumlasiga P.P.Ivanov, A.R.Muhammadjonov, T.Ne’matov va boshqalarning asarlari kiradi.[1] Masalaga birmuncha yorug‘lik kirituvchi ma’lumotlar X.Bobobekov va boshqalarning “O‘zbekiston tarixi” darsligida, oliy o‘quv yurti talabalari uchun “O‘zbekiston tarixi” kitobida berilgan va nihoyat davlatchiligimiz tarixiga oid ma’lumotlarni yirik tarixchi olimlar Azamat Ziyo hamda S.Qudratovlarning davlatchiligimiz tarixi va uning kelib chiqish ildizlari to‘g‘risidagi ma’lumot va xulosalari bugungi kunda mustaqil yurtimizning ilk davlatchilik tarixiga yangicha yondashuvlar o‘z aksini topgan xususan xorazm vohasidagi ilk davlat uyushmalarining yuzaga kelishi tarixi manbalar asosida tahlil etilganligi bilan ahamiyatlidir[2].

---

[1] Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX века: исследование и описание документов с историческим введением.- Л.,1940;
Мухаммаджонов А.Р., Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатларига доир баъзи маълумотлар.-Т.,1957; Йўлдошев М.Ю. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши.- Т., 1959; Йўлдошев М. Тахрири остида.- Хива давлат хужжатлари.- Т., 1960 ва б.

[2] А.Зиё.Ўзбек давлатчилиги тарихи, Дарслик.Т.Шарқ.2000.368б.
С.Қудратов. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи.Ўқув қўлланма.Гулистон.”Зиё”2021.160 б.

Ma’lumki, XIX asr boshlariga kelib, Xiva xonligida siyosiy hokimiyat yangi sulola - o‘zbeklarning Qo‘ng‘irot sulolasi qo‘liga o‘tdi. Shu suloladan bo‘lgan Muhammad Amin Inoqning nabirasi Eltuzar Inoq (1804-1806) o‘zini Xiva xoni deb e’lon qiladi. Uni xon Abulg‘oziy uni taxtdan uloqtirib, rasmiy hokimiyatni o‘z qo‘liga oldi. Shu kundan boshlab Xivada xonlik hokimiyati o‘zbeklarning Qo‘ng‘irot sulolasidan bo‘lgan xonlar qo‘liga o‘tdi. Ularning hukmronligi to 1920 yilgacha davom etdi. Ana shu so‘nggi suloladan Xiva taxtida 11 xon hukmronlik qildi. XIX asr Xiva xonligi tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Qo‘ng‘irotlar sulolasidan bo‘lgan Muhammad Rahimxon I (1806-1825 yy) , Ollohqulixon (1825-1842 yy), xususan mashxur shoir va davlat arbobi Muhammad Rahimxon Soniy (Fyeruz)larning hukmronligi zamonida xonlikning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida ijobiy o‘zgarishlar yuz byeradi. Poytaxt Xivada obodonchilik va maxobatli me’moriy qurilishlar rivoj topdi. Ularning sa’y-harakati bilan Xiva Sharqning eng obod va go‘zal shaharlaridan biriga aylandi. O‘sha davrda Xivada bunyod etilgan me’moriy yodgorliklar sayyohlar e’tiborini hozirda ham o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Muhammad Rahimxon Soniy davridagi Xiva xonligidagi madaniy hayotni yoritishimizdan maqsad, chor Rossiyasi davrida chop etilgan rus olimlarining asarlarida va ayrim sho‘ro davri olimlarining asarlarida Xiva xonligi impyeriyaning juda qoloq chekka viloyati ekanligi haqida yozgan noto‘g‘ri ma’lumotlarini fosh etishdir. Xiva xonligi Gandimiyon Shartnomasidan keyin chor Rossiyasiga qaram o‘lka bo‘lib qoldi. Chorizm siyosati o‘lkadagi boyliklarni, imkoniyatlarini o‘z manfaatlariga bo‘ysundirishga intildi va bunga yerishdi ham. Butun O‘rta Osiyodagi kabi bu yyerda ham ruslashtirish siyosati o‘tkazdi. Bu siyosat natijasida mahalliy xalqlarni o‘z madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlaridan judo etishga, ularni chorizmga so‘z siz bo‘ysunadigan, rus ma’murlari hukmini so‘zsiz

bajaradigan manqurtlarga aylantirishga urindi. Xonlikdagi tarixiy obidalar, kitoblar yyer bilan yakson qilindi. Sho‘rolar davrida ateistik tashviqot-targ‘ibot ishlari natijasida masjidu-madrasalar eskilik sarqiti deb harob etildi.

Mustaqillik sharofati bilan bugungi kunda xalqimizning madaniy-ma’naviy myerosi tiklanmoqda. Vatanimiz tarixini yangicha yondashuv asosida qayta yozish uchun “O‘zbekistonning yangi tarixi” markazi ochildi. Bugungi kunga kelib tarixchi olimlarimiz tomonidan yangidan-yangi adabiyotlar yaratilmoqda, ulardan biz ham baxramand bo‘lmoqdamiz. Keyingi yillarda qayta tiklangan Ma’mun akademiyasi vakillari Xorazm tarixini yozishda katta xissa qo‘shmoqdalar. Xar yili bu yyerda ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazilib, Xorazm tarixiga oid yangi-yangi ma’lumotlar to‘planmoqda. Bu ma’lumotlar intyernet saytlariga ham kiritilmoqda. Bugungi kunda www.chronos.km.ru; www.rubricon.com; www.tashkent.uz kabi saytlarda xonliklar davriga oid ma’lumotlarni uchratish mumkin. Biroq saytlar ham tez-tez yangilanib turadi.

Xiva shahrining 2500 yilligiga bag‘ishlangan tantanalar nafaqat Xiva shahri tarixini, balki butun Xorazm tarixini chuqur va ilmiy asosda o‘rganish zaruriyatini tug‘dirdi. Birinchi Prezident Islom Karimov Xiva shahrining 2500 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqida qator ilmiy tarixiy muammolarni o‘rtaga tashladi. 1998 yil 26 iyul kuni bir guruh tarixchi olimlar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvida, “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” risolasida, “Turkiston” gazetasi muxbirining savollariga byergan javoblarida, “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” deb nomlangan Respublika Oliy Majlisi XIV sessiyasida qilgan ma’ruzasida va boshqa chiqishlarida milliy tariximizni xolisona manbalar asosida yaratishning dolzarb ilmiy muammolariga tarixchi olimlarimiz diqqatini jalb qildilar.

Bugungi kunga kelib Xiva shahri nafaqat xorijlik sayyohlarni balki davlat rahbarlarini ham o‘ziga ohangrabodek jalb qiladi. 2022-yil bahor kunlarida rasmiy tashrif bilan Turkiya prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an ko‘hna Xiva shahriga davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bilan birgalikda tashrif buyurishdi.

Ma’lumki, ikki yetakchining ham tarixga qiziqishi, hurmati baland. Davlatimiz rahbari Turkiyaga tashrifi chog‘ida Istanbuldagi Topkapi saroyini borib ko‘rgan edi. Rejep Tayyip Erdog‘an ilgari yurtimizga kelganida Buxoroni ziyorat qilgan. Bu qal’a Markaziy Osiyoda saqlanib qolgan birdan-bir butun boshli shahar-yodgorlikdir. Uning «ochiq osmon ostidagi muzey» deya e’tirof etilishi shundan. Bu yerda 120 dan ziyod me’moriy obidalar bor. Xiva shahri 1990-yil 12-dekabrda YuNESKO Madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan. 1997-yilda shaharning 2500 yillik yubileyi nishonlangan. Bu uzun tarix davomida Xiva ko‘plab turkiy davlatlarning markazi bo‘lgan. U 2020-yilda Turksoy xalqaro tashkiloti tomonidan Turk dunyosining madaniy poytaxti, deb e’lon qilingan. Shu jihatdan, O‘zbekiston va Turkiya Prezidentlarining bu qadimiy shaharga tashrifi katta ma’noga ega. Mehmonlar Ichan qal’adagi Ota darvoza, Ko‘k minora, Ko‘hna ark saroyi va madrasalar, hunarmandlik rastalarini ko‘zdan kechirdi. Pahlavon Mahmud maqbarasi, Juma masjidi ziyorat qilindi. Davlat rahbarlari hunarmandlar, sayyohlar bilan samimiy suhbatlashdi. Xorazmcha qo‘shiq va raqslar ijrosi barchaga ko‘tarinki kayfiyat baxsh etdi. Xivaning davlatchilik va ilm-fan rivojida tutgan o‘rni, qadimiy obidalari va san’ati turkiyalik mehmonlarda katta taassurot qoldirdi[3].

Xiva xonligi to‘g‘risida hozirgi kungacha XIX asr oxiri- XX asr boshlarida madaniy hayot to‘g‘risida yangicha nuqtai nazardan yondoshilgan holda yozilgan asarlar deyarli yo‘q. Olimlar tomonidan, ayniqsa mustaqillik

[3] https://president.uz/oz/lists/view/5095

yillarida qaytadan tashkil etilgan Ma’mun akademiyasi vakillari tomonidan bu masala o‘rganilmoqda, matbuotda, ilmiy jurnallarda maqolalar e’lon qilinmoqda, anjumanlarda ma’ruzalar o‘qilmoqda. Biroq shuni aytish kyerakki, ko‘pincha bu davrning Sho‘rolar davri bilan bog‘liq, ya’ni Xiva xonligining tugatilishi, istiqlolchilik harakati, “Yosh xivaliklar” faoliyati kabi masalalarga ko‘p o‘rin ajratilmoqda. Biz ishimizda Xiva xonligidagi XIX asr oxiri-XX asr boshlarida, ya’ni chor Rossiyasi mustamlakasi davrida xonlikdagi madaniy hayotni yoritib byerishni maqsad qilib qo‘ydik.

Yana shuni aytib o‘tish joizki, bugungi kunda o‘zbek davlatchiligi tarixini yoritish tarix fanining yetakchi muammosi sifatida tan olingani barchamizga ma’lum. O‘zbek davlatchiligi tarixida Qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligi davri o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, juda qisqa ma’lumotlar keltirilgan. Shuning uchun ham ishimizda bu sulola vakillari hukmronligi davrini har tomonlama tahlil qilinishi ishning yangiligi va natijasidir.

“O‘zbek davlatchiligi tarixi”, “O‘zbekiston tarixi”, “Manbashunoslik”, “Tarixshunoslik”, “O‘zbekiston madaniyati va san’ati tarixi” fanlaridan ma’ruza, refyerat, kurs ishlari yozishda, seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rishda, anjumanlarga tezis tayyorlashda foydalanish mumkin.

I bob. Qo‘ng‘irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi davridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat

1.1. Qo‘ng‘irotlar sulolasi tarixining tarixiy manbalarda yoritilishi

Xorazm - qadimiy madaniyat markazlaridan biridir. Bu tabarruk zamindan o‘z vaqtida Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Abdullox al-Xorazmiy, Abu Rayxon Byeruniy, allomai Zamaxshariy kabi qator buyuk olimlar yetishib chiqqanlar va o‘rta asr fanining turli sohalari bo‘yicha ko‘plab ilmiy asarlar ijod etib, jaxon madaniyati xazinasiga o‘zlarining munosib xissalarini qo‘shganlar.

XVII-XIX va XX asr boshlariga kelib ana shu zamindan Abulg‘oziyxon (1605-1664), Shyermuhammad Munis (1778-1829), Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874) va Muhammad Yusuf Bayoniy (1879-1923) kabi buyuk va zabardast tarixnavis olimlar, shoirlar va mohir tarjimonlar va davlat arbobi yetishib chiqqan edilar. Bular ham qator qimmatli tarixiy va adabiy asarlar ijod etib, o‘zbek madaniyati xazinasiga bebaho xissa qo‘shdilar va uni yangi-yangi asarlar bilan boyitdilar.

XVII asrda Xiva xoni va tarixnavisi Abulg‘oziyxon Xorazm tarixi bo‘yicha o‘zbek tilida tarixiy asarlar yozish ishini boshlab byerdi. Keyinchalik XX va XX asr boshlariga kelib, uning bu ajoyib ishini atoqli tarixnavislar Shyermuhammad ttdilar.

Shunday qilib, mazkur tarixnavislar bir-birlarining ishini davom ettirib, uzoq davrni o‘z ichiga qamrab olgan, Xorazm tarixining o‘rganishda ajoyib ma’lumotlarga boy “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima”, “Firdavs ul-iqbol”, “Zubdat ut-tavorix”, “Jome’ ul-voqeoti sultoniy”, “Gulshani davlat”, “Shohid ul-iqbol”, “Shajarayi Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” nomli qator qimatli tarixiy asarlarini ijod etdilar.

Xivalik tarixnavislar tomonidan yaratilgan bu tarixiy asarlarning qo‘lyozma nusxalari hozirda Toshkentda UzR FA Sharqshunoslik institutida

qo‘lyozma asarlar xazinasida va Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Petyerburgda saqlanmoqda. Sankt-Petyerburgga borib qolganligining sababi, Xiva xonligi chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan vaqtda Xiva xoni saroyida saqlanayotgan qator qimmatbaho ashyolar qatori bu asarlar ham Sankt-Petyerburgga olib ketilgan edi. Bu haqda ana shu voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Muhammad Yusuf Bayoniy o‘zining “Shajarayi Xorazmshohiy” asarida ko‘rsatib o‘tgan.

Xiva xonligi tarixini yorituvchi birinchi manba bu Abulg‘oziyning qalamiga mansubdir. Abulg‘ozixon Xiva xoni (1644-1663 yy): yirik tarixchi olim. 1603 yilda Urganchda tug‘ilgan va 1619 yilgacha ana shu shaharda istiqomat qilgan, so‘ngra inilari Xabash va Ilbars bilan toju taxti uchun bo‘lgan kurashda mag‘lubiyatga uchrab, Buxoroga qochib bordi va Imomqulixon (1611-1642 yy) saroyidan panoh topdi. Akasi Isfandiyor xon bo‘lgach (1623 y), yana Xorazmga qaytib bordi va Urganchga hokim etib tayinlandi. Lekin oradan ko‘p vaqt o‘tmay (1627 y), u yana o‘zaro feodal kurashda, bu gal Isfandiyorxonning o‘zi bilan bo‘lgan kurashda, mag‘lubiyatga uchradi. Bu safar u Turkistonga qochib bordi va qozoq xonlaridan Ishimxon (1598-1628 yy) huzurida panoh topdi. Oradan 1 yil chamasi o‘tgach, 1628 yili yana bir qozoq xoni - Tursunxon uni Toshkentga olib ketdi va Abulg‘ozi Toshkentda 1630 yil oxirigacha istiqomat qildi.

Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, Abulg‘ozi Xiva turkmanlarining taklifi bilan yana Xorazmga qaytib bordi, lekin 6 oy o‘tar-o‘tmas, Isfandiyorxon uni Niso va Durunga bosqinchilik yurishi uyushtirganlikda ayblab hibsga oldi va Yeronga, shoh Safi’ 1 (1629-1642 yy) xuzuriga omonat tariqasida byerib yubordi. Abulg‘ozi o‘shanda Isfaxondagi Taborak qal’asiga qamab qo‘yildi va shu tarzda Yeronda 10 yil atrofida kun kechirdi. 1639 yili Isfandiyorxon vafotidan 1 yil o‘tgach, Orol o‘z beklari uni xon qilib ko‘tardilar. O‘sha yili

Abulg‘ozi Xivadagi raqiblari ustidan ham g‘alaba qozondi va Xiva taxtiga o‘tirdi.

Abulg‘ozixon “Shajarayi turk” asarida o‘zi haqida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “Bu fakirga Xudoyi Taolo inoyat qilib, ko‘b nima narsa byergan turur Xususan uch hunar byergan turur. Avval sipoxiygarlikning Qonuni va yo‘suni. Ikkinchi, masnaviyot va kasoyid va g‘azaliyot va mukattaot va ruoiyot va barcha ash’orni faxmlamaklik, arabiy, forsiy va turkiy lug‘atlarning ma’nosini bilmaklik. Uchinchi, Odam axdindin to bu damgacha Arabistonda, Yeron va Turonda va Mo‘g‘ulistonda o‘tgan podshohlarning otlari va umrlarining va saltanatlarining kam va ziyoda bilmaklik».[1]

Uning o‘zi tomonidan keltirilgan bu ma’lumotlarga qaraganda, Abulg‘oziyxon tarix ilmini, she’riyatni, sipoxiygarlikni yaxshi bilish bilan bir qatorda, arab, fors va turkiy tillarni mukammal egallagan. Ana shunday iste’dod egasi bo‘lgan Abulg‘oziyxon Xorazm tarixiga oid qimatli tarixiy asarlar ijod etgan.

Abulg‘ozi 1663 yili toju taxtni o‘g‘li Anushaga (1663-1687) qoldirib, umrining oxirini butunlay ilmiy ishga bag‘ishladi. U 1664 yili vafot etdi.

Abulg‘ozixon tarix saxifasida feodal hukmdor sifatida emas, balki keng ma’lumotli olim sifatida ajoyib asarlari tufayli qoldi. U “Shajarayi turk va mo‘g‘ul” hamda “Shajarayi tarokima” nomli ikki yirik va muhim tarixiy asar yozib qoldirdi.

“Shajarayi tarokima” turkman xalqi va Turkmanistonning o‘rta asrlardagi tarixini o‘rganishda bosh manba rolini o‘taydi. “Shajarayi turk va mo‘g‘ul” esa O‘zbekistonning XV-XVII asrlardagi tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. “Shajarayi turk va mo‘g‘ul” 1664 yili yozilgan, lekin Abulg‘ozixonning og‘ir dardga chalinib qolishi va tez orada vafot etganligi

[1] www.rubricon.com

sababli tamomlanmay qolgan. Asar IX bobining davomi, ya’ni 1644-1663 yillar voqealari Anushaxonning topshirig‘i bilan Mahmud ibn mulla Muhammad Urganjiy degan shaxs tomonidan yozilgan. Asarning I-VI boblari ham o‘sha Mahmud ibn Muhammad Urganjiyning qalamiga mansubdir.

«Shajarayi turk» asari xaqida Abulg‘ozixon quyidagicha yozadi:»Tarix xijriy ming etmish to‘rt (1074 (1663-1664) yerdikim, biz bu kitobni ibtido qilduk va taki «Shajarayi turk» deb ot qo‘ydik. Taki to‘qqiz bob qilduq». Muallif aytganidek, asar qisqacha muqaddima va 9 bobdan iborat. Muqaddimada asosan asarning yozilish sabablari haqida gap boradi. 1 bobda Odam Atodan to Mo‘g‘ulxongacha, 2 bobda Mo‘g‘ulxondan Chingizxongacha, 3 bobda Chingizxonning to‘g‘ilishidan to vafotigacha, 4 bobda O‘gaday qoon va uning Mo‘g‘ulistonda hukmronlik qilgan avlodi, 5 bobda Chig‘atoyxon va uning Movarounnaxrda podsholik qilgan vorislari, 6 bobda Elxoniylar, 7 bobda Jo‘chixon va uning Dashti Qipchoqda podsholik qilgan avlodi, 8 bobdaShayboniyxon va uning Movarounnaxr, Qozog‘iston, Sibir va Qrimda hukmronlik qilgan farzandlari va, nihoyat, 9 bobda Shayboniyxonning 1511 yildan Xorazmda podsholik qilgan avlodi hukmronligi yillarida yuqorida qayd etilgan mamlakatlarda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon etilgan.

Asarning 1-8 boblari kompilyativ bo‘lib, Rashiduddinning «Jome’ ut-tavorix», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlari, shuningdek, 18 ta boshqa tarixiy kitoblar asosida yozilgan. Uning faqat 9 bobi original hisoblanadi va unda Xorazmning 1512-1663 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi keng va atroflicha bayon etiladi.[1]

Bundan tashqari asarda muallif zamonida obod bo‘lgan shaxarlar (Urganch, Vazir, Tirsak, Yangi shaxar, Buldumsoz, Bog‘obod, Kot, Durun,

[1] www.vostlit.narod.ru

Qumkent, Mizdaxkan, Dorug‘an ota, Baqirg‘og, xos minora, Ism Mahmud ota, Chilik), Amudaryo va daryo o‘zanining o‘zgarishi, xivalik turkmanlarning og‘ir ahvoli, XVI-XVII asrlarda Xiva xonligi bilan Buxoro o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi.

Abulg‘ozixon va uning «Shajarayi turk va mo‘g‘ul» asari tez orada ilmiy jamoatchilikning diqqat-e’tiborini qozondi. U XVIII asrdayoq bir necha Yevropa tillarida: nemis va fransuz (1726 y), rus (1770 y), ingliz (1780 y) tillariga tarjima qilindi. O‘tgan asrda bu asar nemis (G.Ya.Kyor), rus (Ya.O.Yartsev va G.S.Sablukov), fransuz (P.I.Delizon), turk (Ahmad Vefiq poshsho) tillarida chop etildi. Asar 1897 yili rus, 1913 yili yana turk (Rizo Nur) va 1935 yili fors tillariga tarjima qilindi.

Asarning G.S.Sablukov (1906) va P.I.Delizon (1871-1874) amalga oshirgan nashrlari mukammal va zo‘r ilmiy qimmatga egadir.

Xiva xonligi tarixiga oid manbalardan yana biri Munis va Ogahiy asarlaridir. XVIII asrning so‘nggi choragi va XIX asrda o‘tgan xorazmlik yirik shoir, tarjimon va tarixshunos olimlar.

Munis (asl ismi: ShyerMuhammad ibn Avazbiy) 1778 yili Xorazmning Kat qishlog‘ida dunyoga kelgan. Xiva madrasalarida tahsil ko‘rgan.1800 yildan boshlab xon saroyida kotib bo‘lib xizmat qilgan. U 1829 yili 51 yoshda vafot etgan.

Munis atroflicha ma’lumot olgan, turli fanlar, ayniqsa adabiyot va tarixdan keng xabardor bo‘lgan yetuk olim va iste’dodli shoir sifatida tarixda qoldi. U 1806 yilda Eltuzarxonning topshirig‘i bilan «Firdavs ul-iqbol» (Jannat bog‘i) asarini yoza boshlaydi. Lekin asar ayrim sabablar bilan tugallanmay qolgan. Munis zo‘r tarjimon sifatida ham ma’lum. U Mirxondning «Ravzat us-safo» asari tarjimasini ham boshlab byergan va uning birinchi jildini tarjima qilib tamomlagan.

Ogahiy (haqiqiy ismi Muhammad Rizo ibn Yerniyozbek) ham asli katlik va 1809 yili tug‘ilgan. Munisning jiyani va uning qo‘lida tarbiya topgan. Yaxshi o‘qib, turli fanlarni ayniqsa tarix va adabiyotni chuqur egallagan. Munis vafotidan keyin saroyni tark etib, ota kasbi miroblik bilan kun kechirgan. Ogahiy 1874 yili vafot etgan.

Ogahiy ham iste’dodli shoir, tarixnavis olim va tarjimon sifatida mashxurdir. U tog‘asi boshlagan «Firdavs ul-iqbol»ni oxiriga yetkazdi. Bundan tashqari Ogahiy «Riyoz ud-davla» (Davlatning jannat bog‘i), «Zubdat ut-tavorix» (Tarixlar sarasi), «Jome’ ul-voqe’oti sultoniy» (Sulton voqealarining majmuasi), «Gulshan ud-davlat» (Davlat gulshani) kabi asarlar ham yozgan. Ogahiy 19 asarni fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Mirxondning «Ravzat us-safo»si, Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Zaynuddin Vosifiyning «Badoe’ ul-vaqoe’» asarlari shular jumlasidandir.

Munis va Ogahiy Xorazmning qadim zamonlardan to Qo‘ng‘irot sulolasidan Ollohqulixon (1825-1842yy) zamonigacha bo‘lgan tarixidan baxs yurituvchi «Firdavs ul-iqbol» nomli muhim asar yozib qoldirganlar.

Asar muqaddima va 5 bobdan iborat. Asar 1806 yili boshlangan va 1840 yili yozib tamomlangan.

Muqaddimada Eltuzarxon nomiga hamdu sano o‘qiladi; Munisning mazkur xonning xizmatiga kirish sabablari aytiladi. Shuningdek asar mundarijasi keltiriladi. Asarning 1-2 boblari islomiyatdan avval o‘tgan payg‘ambarlar, eski tarix kitoblarida turk-mo‘g‘ul qabilalarining ajdodi hisoblangan Yofas ibn Nux va qo‘ng‘irot amirlarining ilk tarixiga bag‘ishlangan.

3 bobda Burtajon va Chingizxon tarixi, mo‘g‘ul impyeriyasining Chingizxon zamonidan to Oltin O‘rda xoni Byerdibek (1357-1361 yy) davrigacha bo‘lgan tarixi bayon etilgan.

4 bob Xorazmning Shayboniylar davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixi haqidadir.

5 bob Xiva xonligining 1804-1825 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘z ichiga oladi.

Munis va Ogahiy asarining asosiy ahamiyati shundaki, unda Xorazmning qariyb 300 yillik (1511-1825 yy) tarixi yaxlit, xronologik tartibda aks ettirilgan. Qolavyersa, asar turli mazmundagi faktik matyerialga nihoyatda boy. Asarda, masalan, Xorazm o‘ramida istiqomat qilgan turkman, qoraqolpoq va qozoq xalqlari va ularning, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o‘rni, feodal yyer egaligi, feodal ekspluatatsiya va mehnatkash xalqning og‘ir ahvoli (masalan, mehnatkash xalqdan undiriladigan soliq va jarimalar: xiroj, zakot, peshkash, tajuqot va b.; 14 urug‘ning tarqatib yuborilishi, 1714,1722-1723, 1768 yillarda sodir bo‘lgan ocharchilik va qahatchilik va xk); Xorazm shaharlarining (Urganch, Kat, Vazir, Yangi shahar, Tirsak, Gandumxon, Xazorasp, Shohobod va b.) umumiy ahvoli; turkmanlar va Xorazm o‘zbeklarining etnik tarkibi; Xiva xonligining boshqa mamlakatlar, xususan, Yeron, Buxoro xonligi va Rossiya bilan bo‘lgan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari xususida qimmatli ma’lumotlar bor.

«Firdavs ul-iqbol» kam o‘rganilgan, chop etilmagan. Qo‘lyozmalari xorijiy mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanadi.

Xalqimizning ma’naviyatiga, tarixiga, qadriyatlariga oid har bir narsa e’zozlanishi, asrab-avaylanishi, chuqur ilmiy tadqiq etilmog‘i lozim. XIX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Muhammad Rizo Yerniyozbek o‘g‘li Ogahiy tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar ham o‘rganishga arzirli ahamiyatga ega. Mohir muarrix o‘z amakisi va ustozi ShyerMuhammad Munisning Xorazm tarixiga oid «Firdavs ul-ikbol» asarini

davom ettirib, mukammal tarixiy asar sifatida yakunlagan. Ogahiy Xorazm tarixiga oid beshta asar yaratgan.

Bular Ollohqulixon hukmronlik qilgan davr (1825-1843) to‘g‘risidagi «Riyoz ud-davla» («Saodat bo‘stoni»), «Zubdat ut tavorix» («tarixlar sarasi»), Rahimqulixon saltanati davri (1843-1846) xususida, «Jomi’ ul-voqeoti sultoniy» (Sultonlik voqealari to‘plami) Muhammad Aminxon hukmronlik davri (1846-1855) voqealari, «Gulshani davlat» Sayid Muhammadxon hukmdorligi davri (1856-1865) to‘g‘risida, Muhammad Rahimxoni soniy –Fyeruz saltanati voqealari (1865-1910) xususida ma’lumot byeruvchi «Shohidi iqbol» yoki «Iqbol Fyeruziy» asarlaridir. Bu tarixiy asarlarda Xiva xonligi hududida yashagan o‘zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq xalqlarining ijtimoiy hayotini, Xiva xonligining Buxoro, Qo‘qon xonliklari, Yeron, Xindiston, Afg‘oniston bilan bo‘lgan munosabatlarini, o‘zaro urushlari, Rossiya bilan bo‘lgan savdo aloqalarini, xalqlarning urf-odatlarini, milliy qadriyatlarimizni keng ko‘lamda yoritib byergan. Akademik V.V.Bartold ta’kidicha: «Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlarning qanchalik kamchiliklari bo‘lmasin, tarixiy voqealar bayon etilishi va ularda keltirilgan daliliy matyeriallarning ko‘pligi jihatidan Qo‘qon va Buxoro xonliklari tarixiga doir bizgacha yetib kelgan hamma asarlarni o‘zidan ancha orqada qoldiradi.»[1]

«Gulshani davlat» asari ham to‘la ma’noda ana shu yuksak bahoga loyiqdir Muarrixning tarixiy asarlari ichida «Gulshani davlat» o‘z mundarijasiga ko‘ra davr ma’naviy hayotini idrok etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda shoh va shoir Muhammad Rahimxoni soniy – Fyeruzning otasi Sayid Muhammad Bahodirxon hukmronligi davridagi (1856-1865) voqealar bayon etiladi.

[1] www.rubricon.com

Asarning ikki nusxasi 7572, 12.552 tartib raqamlari bilan O‘zR FA Abu Rayxon Byeruniy nomidagi sharqshunoslik institutida, shuningdek, Sankt-Petyerburgdagi Sharqshunoslik instituti bo‘limida (E 1891 NOV 215.6 VIII 590 OV raqamli ikki nusxasi) saqlanadi. Ogahiy asarning yozilishi tarixi xususida shunday deydi:

«Chun bu majmuai baxjatshior va marqumai fayzasarg‘a ibtido qalami suruldi, «Gulshani davlat»g‘a mavsum bo‘ldi…»[2]

Asar 39 bobdan iborat bo‘lib, boblar ichida yana 100 ta faslchalar bor. Asardagi tarixiy voqealar bayoni, hodisalar tafsiloti, boblar va bu boblar ichidagi fasllarda «Yana ulkim», «Bu ijmol tavsili ulkim», «Bu voqea bayoni ulkim», «Ba’zi voqea zikrikim» kabi sarlavxalarda byerilgan.

Ogahiy fikricha, hukmdor uch fazilat – oliy nasab, ilmu ma’rifat va harbiy maxorat sohibi bo‘lmog‘i zarur. Sayid Muhammad Bahodirxonda ana shu uch fazilat mujassam edi. Xon xazratlarining yoshligidan ilmga, xususan, she’r va tarixga muxabbati, qiziqishi kuchli edi. Yoshlik yillari, o‘spirinlik davrlaridayoq go‘zal joylarda dilkusho majlislarda u o‘z davrining olim va fozillari bilan hamsuhbat bo‘lib, diniy va dunyoviy ilmlardan baxramand bo‘lgan. Asarda bayon etilganidek: «She’r va tavorix va taassuvi daqoyiqiy mujodalasidin nihoyatsiz zavq va g‘oyatsiz farax xosil qilur edi. Va majlis ahliga atoi xusravona va saxoi bebahona sarpanj bila zarposhlig‘ qilib, xushxollik va forig‘bolliq etkurur edi.»[1]

Ilmparvar Sayid Muhammad Bahodirxon ayniqsa, olimlar, fozillar, shoirlarga alohida marhamatlar ko‘rsatadi. Buning natijasida Xorazm diyorida she’riyat va adabiyot yuksak darajaga ko‘tariladi. Asarda Xorazm adabiy muhiti vakillaridan Ogahiy yuksak baho byergan davron fuzalosidan jome’-al funun va al-ulum Muhammad Yusuf Maxmud, mullo Nurjoy Xolis, Muhammad Yusuf Maxdum, Komillar ijodidan namunalar byeriladi.

[2] Султонова Қ. Огахий таърифидаги тарих.- Маърифат, 2003 йил 3 сентябрь. 5 б.
[1] Султонова Қ. Огахий таърифидаги тарих.- Маърифат, 2003 йил 3 сентябрь. 5 б.

Shuningdek, asarda iste'dodli shoir, xattot, tarjimon Paxlavon Niyozboy Komil haqida ilk ma'lumot byeriladi: «Va navrasfikru toza tab' shuarodin fazlu xunar ahli orasida mumtoz Paxlavon Niyozbiykim, fozillar guruhi ichra taxallusi Komildur».[2]

Sayid Muhammadxon harf ilmini ham qunt bilan o'rganadi, bu ilmning sirru sinoatlarini shu darajada mukammal o'z lashtiradiki, nasr bayonida ta'riflaganidek: «… Va goho muxoriba va muqobila rusumining ulushida andoq maxorati diqqat xosil qildikim, urush qoidasin bilmakda zamon shuja'asig'a g'olib keldi. Va barcha yarog'ni o'z maqomida andoq ustodlig' bila ishlattikim, rustamu Baxrom ruhig'a taajjub va xayrat barmog'in tishlatti».[3]

Xon xazratlari yur ma'murchiligi, obodonchiligi, bunyodkorlik ishlariga ham katta e'tibor byeradi. Shuningdek, savdo-sotiq, diplomatik munosabatlarni ham yaxshi yo'lga qo'ygan edi.

Tarixni o'rganmoqdan murod saboqdir. Xazrat Navoiy ta'biri bilan aytganda, «Ne ishdin mamlakat obod, qayu ishdin ulus barbod bo'lganligini tafakkur ko'zgusida ko'rib, ibrat olinganidagina bu murod hosil bo'ladi. Aks holda u ibrat darsi emas, zalolat, adashishlik asosiga aylanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda «Gulshani davlat» asari xalqimizning XIX asr tarixi, adabiyoti, xalq marosimlari, urf-odatlarini, milliy qadriyatlarimizni o'rganishda muhim manba sifatida mo'tabardir.

Shunday qilib, Munis va Ogahiylarning yuqorida ko'rsatib o'tilgan tarixiy asarlarida Xiva xonligining 1825 yildan 1872 yilgacha bo'lgan siyosiy tarixi tadrijiy tartibda mufassal bayon etilgan. Shuningdek, bu tarixiy asarlarda Xorazm ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli ma'lumotlar keltrilgan.

---

[2] Уша жойда
[3] Уша жойда

Ogahiydan so‘ng Xorazm tarixini yozish ishi zabardast tarixnavis olim, ajoyib shoir va mohir tarjimon Muhammad Yusuf Bayoniy tomonidan davom ettirilgan edi. Bayoniyning yashagan davri XIX asrning 2 yarmi va XX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Bayoniy tarixnavis olim sifatida Xorazm tarixiga oid qimmmatli «Shajarayi Xorazmshohiy» va «Xorazm tarixi» nomli tarixiy asarlar ijod etadi. Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy» nomli asarida Abulg‘oziyxon, Munis va Ogahiylarning «Shajarayi turk», «Shajarayi tarokima», «Firdavs ul-iqbol», «Riyoz ud-davla», «Zubdat ut-tavorix», «Jomi’ ul-voqe’oti sultoniy», «Gulshani davlat» va «Shohid ul-iqbol» nomli tarixiy asarlarida keltirilgan davr, ya’ni Xorazmda qadim zamonlardan 1873 yilgacha bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealarni keltirish bilan birga, undan so‘nggi davr, ya’ni 1873 yildan 1914 yilgacha Xiva xonligida sodir bo‘lgan tarixiy voqealar bayon etiladi. O‘z mazmuni bilan Bayoniyning bu asari, yuqorida nomlari zikr etilgan tarixiy asarlarning xulosasi va davomi hisoblanadi.[1]

Munis va Ogahiyning tarixiy asarlari hashamdor qiyin til bilan yozilgan bo‘lib, ularda arabcha va forscha so‘zlar va og‘ir iboralar ko‘p uchraydi. Shu sababli o‘quvchilarga bu asarni tushunish qiyin bo‘lgan. Ana shu qiyinchiliklarni bartaraf qilish va o‘quvchilar uchun tushunarli qilish maqsadida, Bayoniy Munis va Ogahiy asarlarini bir jildga to‘plab, ma’lum darajada qisqartirib, sodda til bilan qayta ezib chiqadi. Bu xaqda Bayoniy bunday deb ezadi: «Bu yil 1329y (1911yildir). 1873 yildan 1911 yilgacha bo‘lgan voqealar yozilmay qolgan. Bu davrda Xorazmda bo‘lgan tarixiy voqealarni yozish faqirning zimmasiga tushadi. O‘z asarimni «Shajarayi Xorazmshohiy» deb atadim va 16 bobga bo‘ldim.»[2] Bayoniyning ko‘rsatishicha, bu asarni yozish vaqtida Ogahiyning «Jomi’ ul-voqe’oti sultoniy» va «Shohid ul-iqbol» nomli asarlarni topishning imkoni

[1] Ащмедов Б. Ызбекистон тарихи манбалари. – Т.,1991.
[2] Баёний. Шажарайи Хоразмшощий.- Т.:Камалак, 1991.

bo‘lmaganligi tufayli, 1846 yildan 1872 yilgacha Xorazmda bo‘lgan tarixiy voqealar, Ogahiydan tashqari, bu asarda ikkinchi marta Bayoniy tomonidan ham yozilgan. Shunday qilib, bu asarda 1846 yildan 1914 yilgacha bo‘lgan tarixiy voqealar Bayoniy tomonidan yozilgan.

Bayoniyning mazkur tarixiy asari Xorazm tarixini o‘rganishda aniq ma’lumot byeruvchi asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Avvalo bu asarda siyosiy hayot juda mufassal bayon etilgan.

Bayoniyning mazkur asarining 15 bobida Muhammad Rahimxon II - Fyeruz (1865-1910 yy) hukmronligi davrida Xiva xonligida bo‘lgan voqealar haqida gapiriladi. Xiva xonligining siyosiy hayotida ro‘y byergan katta voqealardan biri- Xiva xonligini chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi edi. Bu voqea Xorazmda Muhammad Rahimxon II hukmronligi davrida sodir bo‘lgan edi. Muhammad Yusuf Bayoniy o‘zining «Shajarayi Xorazmshohiy» asarida bu masalaga mufassal to‘xtalib o‘tgan. Bu borada qimmatli ma’lumotlar keltirgan.

Ayniqsa bosqin vaqtida shaharlarni mudofaa qilishda olib borilgan ishlar ko‘rsatilgan qarshiliklarga qaramay Xiva xonligiga qarashli shaharlarning chor Rossiyasi tomonidan birin-ketib bosib olinishi, chor Rossiyasi genyerallarining bu yyerda olib borgan ayovsiz va shafqatsiz siyosati aniq ko‘rsatib yozilgan. Bayoniy shu davrda ana shu voqealar ichida yashadi va ularning shohidi bo‘lgan. Bu masalani aniq ma’lumotlar asosida o‘rganishda va yoritishda Xorazmlik tarixnavis olim Bayoniy tomonidan yozilgan bu tarixiy asar katta ahamiyat kasb etadi.

Xorazm tarixiga oid bu qimmatli manbada Xorazm ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hamda madaniy hayotini o‘rganishda ham juda qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Qisqacha qilib aytganda, xorazmlik buyuk va zabardast tarixnavis olimlar Abulg‘oziyxon, Munis, Ogahiy, Bayoniylar Xorazmda qadim zamonlardan boshlab to 1914 yilgacha bo‘lib o‘tgan tarixiy

voqealarni bayon etuvchi qimmatli tarixiy asarlarni ijod etdilar. Kelajakda Xorazm tarixini atroflicha o‘rganishda mazkur asarlar asosiy manba bo‘lib xizmat qiladilar.

1.2. Qo‘ng‘irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi davridagi O‘rta Osiyo xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat

Tadqiq etiladigan jarayonning natijada davlatchiligimiz tarixida qandaydir ijobiylik, yuksaklik holati bilan bog‘liq bo‘lgani uchun emas, aksincha, XVIII-XIX asrlarda (to Rossiya bosqiniga qadar), doimo ta’kidlab kelganimiz, har qanday jamiyat borlig‘i va taraqqiyotini belgilab byeruvchi davlatchilik asoslarining nihoyatda zaiflashib borganligidan, oqibatda millat va davlat qaramlik ahvoliga tushib qolganidan kelib chiqqan holda mazkur davrni o‘rganish va bilish muhimdir. Ya’ni so‘z ketadigan zamonlar biz uchun katta tarixiy saboq bo‘lmog‘i kyerak.

XVIII asrga kelib, bu vaqtgacha 2400 yillik ulkan tarixiy taraqqiyot yo‘liga ega o‘zbek davlatchiligida bo‘linish, tarqoqlik holati ko‘zga yaqqol tashlandi. Bir so‘z bilan aytganda, millat va jamiyat boshqaruviga da’vogar hokimiyat uch yyerda – Buxoro, Xiva, Qo‘qonda alohida-alohida mujassamlashgandi. Ta’bir joiz bo‘lsa, mamlakatda uch hokimiyatchilik g‘olib kelgan edi. To‘g‘ri, mazkur holatning yuzaga kelishida muayyan sabablar bo‘lgani aniq.

Ammo har qanday jarayonga byeriladigan baho, eng avvalo, o‘sha paytdagi manzara, kechib borgan ijtimoiy-siyosiy jarayon va yetib borgan nuqta – natija bilan o‘lchanarkan, demak, qanday bo‘lishidan qat’i nazar, bu sabablarni biz oqlay olmaymiz. Ya’ni davlatchilikdagi bo‘linish, uch hokimiyatchilikning yuzaga kelishi oxir-oqibat davlatning kuchsizlanishi va yemirilishiga, boshqa omillar bilan qo‘shilib Rossiya bosqiniga dosh byerolmay qaramlikka yuztuban bo‘lishiga olib kelgan.

Ashtarxoniylar haqida so‘z yuritib, 1747 yili mazkur sulola faoliyatiga amalda chek qo‘yilganini aytgandek. Garchi shundan keyingi bir yarim yilcha vaqt mobaynida ashtarxoniylardan Abdulmo‘min va Ubaydullaxon soxta xon sifatida e’tirof qilinsa-da, ammo hokimiyat butunlay mang‘itlardan bo‘lmish Muhammad Rahim (1747-1758 yillar) ixtiyorida edi.

Ko‘rinib turganidek, davlatchiligimiz tarixida Amir Temur davridan keyin mang‘itar zamonida yana bir bor «soxta xon» lar an’anasiga qaytilgan, ya’ni Muhammad Rahim Amir maqomida mamlakatni boshqarishga kirishgan. Muhammad Rahim g‘ayratli va qittiqqo‘l siyosatchilardan hisoblangan. U ashtarxoniylar davrida zaiflashib qolgan markaz mavqeini tiklashga urinib, Samarqand, Miyonqol, Qarshi, Xuzor, Shaxrisabz, Karmana, Chorjo‘y va Karki kabilarni poytaxt izmiga qaytara olgan. Ammo uning o‘limidan so‘ng vaziyat yana keskinlashib, keyingi mang‘it namoyandasi, Muhammad Rahimning amakisi Doniyol (1758-1785 yillar) zamonida yana mahalliychilik kuchayib, Nurota, Karmana, Xuzor, O‘ratepa, Boysun, Shyerobod Xisor beklari boshboshdoqlik yo‘liga o‘ta boshlaydilar. Garchi katta qiyinchilik bilan Doniyol ularni yana Buxoro hokimiyatini tan oldirishga yerishsada, ammo bu masala uzil-kesil hal bo‘ldi degani emasdi. Masalan, Shaxrisabzdagi kuchlar amalda o‘z mustaqilliklarini saqlab qolib, bundan tashqari Buxoro hokimiyatiga doim xavf tug‘dirib kelganlar[1].

Markaziy hokimiyatni mustaxkamlash ishiga qat’iy bel bog‘lagan hukmdor bu Shoh Murod (1785-1800 yillar) bo‘ldi. Mang‘it namoyandalari orasida Shoh Murod ham shaxs, ham arbob sifatida alohida o‘rin tutgan, desak xato bo‘lmaydi. U, bir tomondan, o‘ta xo‘dojo‘y, elparast bo‘lsa, ikkinchi tomondan, nihoyatda qattiqqo‘l siyosatchi hisoblangan. Boshdanoq u mamlakatda qat’iy tartib o‘rnatishga kirishib, ishni sulola mavqeini rasmiy jihatdan mustahkamlashdan boshlaydi. Ya’ni soxta xonlik an’anasiga chek

[1] Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений, т. 1, с. 181-184; Тухфат ал-хоний, 77 а –94 б-варақлар.

qo‘yib (Doniyol paytida ham ashtarxoniylardan Abulg‘oziy rasman xon hisoblangan), taxtga rasman o‘zi chiqadi, lekin xon emas, amir unvoni bilan. Shu vaqtdan boshlab davlatning ham rasmiy, ham amaliy boshlig‘i uning o‘zi – amir hisoblangan. Bu to‘g‘ri yo‘l edi. Zyero, endi mamlakatdagi biron-bir siyosiy kuch mang‘itlarning, chunonchi, Shoh Murodning taxtga da’vosi asossizligidan bahona chiqara olmasdi. Shu bilan birga Shoh Murodning mazkur tadbirni nisbatan silliq amalga oshira olganining boshqa sabablari ham bor. Birinchidan, sulola almashinganiga va mang‘itlarning jamiyat ongiga hukmron kuch sifatida ham singgib borayotganiga qirq yilcha bo‘lib qolgandi. Ikkinchidan esa, Shoh Murod o‘z faoliyatida ommaga suyanib ish tutdi. U, eng avvalo, shariat tartiblariga qat’iy rioya qilish, xarom bilan halolni ajratishda qattiq turish siyosatini keng tadbiq etishdan tolmadi. Chunonchi, biz avvallari ko‘rgan muxtasib – ra’is xizmatini, ya’ni bozorlardagi adolat (qalloblik, tarozudan urish, sifatsiz mahsulot sotish va xokazo) buzilishi, ko‘cha-ko‘ylarda ahloq normalariga rioya qilish kabilar bilan bog‘liq tadbirlarni tikladi va jonlantirdi. O‘zi ham nihoyatda kamtarin hayot kechirishga harakat qilgan. Manbalarda yozilishicha, uning o‘zi uchun kundalik harajati bir tangadan oshmagan ekan, yeb ichishi va kiyinishi ham oddiy bo‘lgan. Biron-bir amaldorning uyiga ziyofatga bormas, hech kimdan sovg‘a olmas, o‘z sharafiga turli dabdabali tadbirlar uyushtirilishiga yo‘l qo‘ymas ekan. Bularning bari, albatta, keng omma orasida tarqalib, xalq oldida Shoh Murodning obro‘-e’tibori oshib boravyergan. Buning ustiga otasi Doniyol zamonida joriy etilgan turli oliq-soliqlarni bekor qilib, jamiyat orasida yana ko‘p shuxrat topgan. Oddiy xalqning Shoh Murodga munosabati qanchalik bo‘lganini shundan ham bilsa bo‘ladiki, uni «begunoh amir», deb ataganlar. Xullas, Shoh Murod, bir tomondan, xalqqa, ikkinchi tomondan, lashkarga suyunib mamlakat siyosiy yaxlitligini ta’minlash bilan birga e’ronlik Nodirshoh (1740 yil) bosqini yili Buxoro ixtiyoridan chiqqan

Xurosonni qaytarish uchun harbiy harakatlarni ham boshlab yuborgan. Xususan, 1789-1790 yillari Marvda o‘z hokimiyatini o‘rnatib, marvliklardan bir necha o‘n ming kishini Samarqand va Buxoroga ko‘chirtiradi. Shundan so‘ng eskidan Samarqand yo Buxoro (ya’ni poytaxt ma’nosida) izmida bo‘lib kelgan Balx, Maymana, Andxud kabi viloyatlarni ham qaytarib olish payiga tushadi. Ammo bu oson emasdi. Zyero, 1747 yildan boshlab Balx, Badaxshon, Andxud, Maymana, Sharqiy Seyiston, Balujiston, Sind, Kashmir, Panjob kabi viloyatlarni o‘z tasarrufiga olgan durroniylar (1747-1842 yillar) sulolasi (ya’ni hozirgi Afg‘oniston davlatiga asos solgan siyosiy kuch) namoyandasi Temurshoh (1773-1793 yillar) ham bo‘sh keladiganlardan emasdi. Xullas, o‘zaro kurash qattiq bo‘lsa-da, sezilarli natija chiqmagan[1].

Shoh Muroddan farqli o‘laroq, uning vorisi amir Xaydar (1800-1826 yillar) hukmronlik yillari mamlakatda notinchlik hukm suradi. Ya’ni markaz va viloyatlar hamda kechagina viloyat maqomida bo‘lgan, lekin endilikda alohida siyosiy birlik – xonlikka aylangan Xiva va Qo‘qon bilan qarama-qarshiliklar avjiga chiqadi. Miyonqol, Shaxrisabz, Karki, Marvdagi mahalliy kuchlar yana o‘zboshimchalik qila boshlaganlar. Chunonchi, Marvni boshqarib turgan Din Nosir (amirning ukasi) Xiva xoni Eltuzar (1804-1806 yillar) ko‘magiga ishonib bosh ko‘tardi. Amir Xaydar uchun bu nihoyatda xavfli holat edi. Chunki bu shunchaki viloyatning markazga bo‘yin egmasligi emas, balki rasmiy sulola namoyandasining, mintaqadagi raqiblardan – xivaliklar bilan biriktirib, oliy taxtga qarshi harakati edi. Shuning uchun ham amir Xaydar unga qarshi lashkar tortadi. Shoh Murod davrida bo‘lganidek, amir Xaydar Marvni egallagach, mahalliy aholining bir qismini Zarafshon vodiysiga ko‘chirtirib, bu yyerga turkmanlarni o‘rnashtiradi.

[1] Тарихи амир Хайдар. Ўзбекистон ФА ШИ ЙЖ Қўлёзмаси. Рақами 1836, 8а-9а-варақлар; Ахмад Дониш.Рисола, 12-26-бетлар.

Buxorodagi ichki ziddiyatlardan Xiva xonligi bundan keyin ham foydalanishga ko‘p uringanini ham bilamiz. Chunonchi, Din Nosirga yordam byerish bahonasida Buxoro amirligi hududiga kirib borgan Eltuzarxondan so‘ng 1821-1825 yillari amir Xaydar Miyonqolda xitoy-qipchoqlar isyonini bostirish bilan ovoraligida xivaliklar Chorjo‘y va Marvga harbiy yurish uyushtiradilar. Xivaliklar xatto Marvni zabt etishga ham muvaffaq bo‘lganlar. Bungacha ham amirlikning sharqiy qismida ancha yo‘qotishlar va o‘zgarishlar bo‘lgan. Masalan, Qo‘qon hukmdorlari 1805 yili Xo‘jandni, 1809 yili Toshkentni, 1816 yili esa Turkistonni (Yassi) ishg‘ol etib, xonlik doirasiga kiritadilar. 1806-1813 yillari O‘ratepaga, 1806 yili Jizzaxga, 1821 yili Samarqandga taxdid solganlar. Xullas, amir Xaydar hukmronligi ancha taxlikali bo‘lib markaziy hokimiyat qudrati susaygan edi[1].

Buning isbotini shundan ham bilib olsa bo‘ladiki, uning o‘limidan so‘ng taxtga o‘tirgan o‘g‘illari – amir Xusayn ikki yarim oy, keyin esa amir Umar to‘rt oygina hukmronlik qilganlar, xolos[2]. Shu yili (ya’ni xijriy yil nazarda tutilmoqda) amirlik kursisini amir Nasrulla (1827-1860 yillar) egallaydi. O‘sha zamon tarixchisi Axmad Donish amir Nasrulla haqida shunday yozgandi: «(U) vazmin va qo‘rqmas, qattiqqo‘l va zukko hukmdor edi. El va ulusda fitna chiqarishda nom chiqargan yo ilgarigi amirlarga (ya’ni hukmdorga – A.Z.) nisbatan ko‘rnamaklik qilganining barchasini jazoladi, o‘z tarafdorlarini sayladi»[1]. Shuningdek u shariat tartiblarini mustahkamlab, otasi amir Xaydar davrida beboshlik qilgan barcha viloyatlarni, aniqrog‘i, ulardagi siyosiy kuchlarni poytaxt izmiga qaytardi.

Amir Nasrulla Xiva va Qo‘qonni yana Buxoro atrofida birlashtirishga ko‘p uringan siyosatchidir. Chunonchi, u ilgari qo‘ldan ketgan Marvni poytaxtga bo‘ysundirish uchun xivaliklar bilan ko‘p kurashadi va

---

[1] Батафсил қаранг: Тарихи амир Хайдар, 7-81-боблар; Тарихи Шохрахий, Ўзбекистон ФА ШИ ЙЖ қўлёзмаси. Рақами 1787, 31а –85б-варақлар.
[2] Рисола, 28-30-бетлар.
[1] Рисола, 31-бет.

1843 yili maqsadiga yerishadi. Ammo xivaliklar ham bo‘sh kelmay 1855 yili yana bir bor Marvni ishg‘ol qiladilar. Xivaliklar bu bilan cheklanmay Chorjo‘yga ham doimo taxdid solib turganlar. O‘z o‘rnida esa amir Nasrulla Xiva xonligi doirasidagi Xazoraspga yurish uyushtirgani ma’lum.

Amir Nasrullaning Qo‘qonga nisbatan tutgan siyosati unumliroq bo‘lgan, deyish mumkin. 1840-1842 yillar davomida u katta urinishlar natijasida Xo‘jand, Toshkent, Qo‘qon kabilarni Buxoroga bo‘ysundirishga yerishadi. Bir qaraganda, mazkur voqealar natijasida mamlakatning birlamchi birlashuvi uchun qayta imkon tug‘ilgandan bo‘lsa-da, ammo amir Nasrullaning bir xatosi tufayli mo‘ljal ro‘yobga chiqmay qolgan. O‘sha zamon voqealari guvohi, tarixchi Muhammad Xakimxon yozishicha, amir Nasrulla o‘lmasdan Qo‘qonga Ibroxim parvonachi mang‘itni tayinlab o‘zi Buxoroga qaytib ketgan. Ibroxim parvonachi esa kechagina urushdan chiqqan mahalliy aholiga insbatan zulm o‘tkaza boshlagan, ayniqsa oliq-soliqlar borasida. Natijada ikki oy o‘tib-o‘tmay asli minglardan bo‘lmish, qirq besh yil davomida tog‘lik yyerlarda, qirg‘izlar orasida yashagan Shyerali vaziyatdan xabar topib, tezda lashkar yig‘ib keladi va Buxoro noibini ag‘daradi. Garchi amir Nasrulla ham qo‘shin tortib kelib, Qo‘qonni yana bir bor egallashga harakat qilgan bo‘lsa-da, biroq uddasidan chiqolmaydi. Shu tariqa Buxoro va Qo‘qonni birlashtirish imkoni qo‘ldan ketadi[1].

Amir Muzaffar (1860-1885 yillar) hukmronlik yillari mang‘itlar sulolasi va ular hukmi ostida yashagan aholi uchun eng taxlikali davr bo‘lgan, desak adashmaymiz. Faoliyatini otasi zamonida mansabda bo‘lgan amaldorlarni bo‘shatish va mol-mulklarini musodara qilishdan, amir Nasrulla tomonidan o‘z vaqtida Karmanaga surgun qilingan kishilarni yana poytaxtga

[1] Амир Насрулла замони бўйича қаранг: Рисола, 30-40-бетлар. Мир Олим Бухорий. Фатщномайи султоний. Ўзбекистон ФА ШИ ЙЖ қўлёзмаси. Рақами 1838, 56 а ва кейинги варақлар;
Тарихи Шохрухий, 98б-101а-варақлар;
Мухаммад Хакимхон.. Мунтахаб ат-таворих. Душанба, 1985, 2-жилд, 732-739-бетлар.

qaytarib yuqori lavozimlarga tayinlashdan boshlagan amir Muzaffar, garchi shu tariqa o‘z mavqeini mustahkamlashga uringan bo‘lsa-da, aslida bu bilan kishi bilmas davlat va sulola qudratiga katta zarba byergandi. Karmanada qaytarilib yuqori davlat vazifalariga tayinlanganlar, Axmad Donish so‘zi bilan aytganda, o‘z faoliyatlarida «xalqning qonini so‘rganlar». Ayniqsa, soliq yig‘ishda. Yana mazkur tarixchi guvohlik byerishicha, Amir Muzaffar Xisor va Qo‘qonga qilgan harbiy yurishlaridan (1863-1865 yillar) mag‘rurlanib ketgan. O‘zidan boshqani tan olmay qo‘ygan. Shariat hukmlarini ijro etishda o‘zboshimchalik qilish yo‘liga o‘tib olgan. Masalan, deydi Ahmad Donish, arzimagan jinoyat qilgan kishi qatl etilishi, odam o‘ldirgan jinoyatchi birov so‘rab-surishtirmasligi ham mumkin bo‘lib qolgandi. Shuningdek uning davrida lashkar ham zaiflashgan, otasi zamonida harbiy yurishlarda pishigan sarkardalarni qatl ettirib, o‘rinlariga «tagi past kishilarni va g‘ulomlarni» tayinlagan. «Rusiya o‘lkaga bostirib kirganda esa, deb davom etadi Ahmad Donish, tagi past, nodon va g‘ayratsiz sarkardalar juftakni rostlab qoldilar, (to shu vaqtgacha ulardan) ozor chekib kelgan askarlar g‘ulomlarga xizmat qilishni or bilib tarqab ketdilar. Natijada barcha viloyatlar Rusiya qo‘liga tushdi»[1]. Bir so‘z bilan aytganda, 1868 yili Rossiya harbiy bosqiniga dosh byerolmay mang‘itlar boshqargan Buxoro amirligi qaramlikni bo‘yniga olishga majbur bo‘ladi. Barcha siyosiy xaq-huquqlardan mahrum qilingan amir Muzaffar va uning vorislari Abdulaxad (1885-1910 yillar), Sayid Olimxon (1910-1920 yillar) Rossiya impyeriyasi ixtiyoridagi qo‘g‘irchoq xonlar edilar, xolos. 1917 yili impyeriya markazida davlat to‘ntarishi natijasida hokimiyatni qo‘lga olgan yangi siyosiy kuch – bolsheviklar Buxoro va Xivadagi xonlik-mustamlakachilik tartiblari o‘rniga sovet-mustamlakachilik sharoitini o‘rnatish niyatida 1920 yili Buxoro

[1] Рисола, 35-37-бетлар.

amirlik, Xivada xonlik hukumatini yo‘q qiladilar. Shu tariqa mang‘itlar sulolasi tarixiy-siyosiy faoliyatiga xotima yasaladi.

Endi Xiva xonligi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tsak. O‘tmish davrlar misolida ko‘rilganidek, doimo mamlakat markaziga bo‘ysunib kelgan markaz bo‘lib o‘lkani birlashtirib turgan (masalan, anushteginiylar davrida), Xorazm viloyati XVI asrga kelib bir qator mahalliy siyosiy kuchlar harakati bilan o‘z boshimchalik kayfiyatiga byerila boshlaydi. Xususan, temuriylar davrida Samarqand ixtiyorida bo‘lgan Xorazm mamlakatda siyosiy boshqaruvga da’vogarlar o‘zgargandan so‘ng ham ilgarigi maqomda qolgan. Temuriylardan davlat tizginini tortib olgan Muhammad Shayboniyxon zamonida ham Xorazm Samarqand siyosiy doirasida edi. Aniqrog‘i bunga Muhammad Shayboniyxon o‘sha asrlar qonunlariga ko‘ra 1505 yili Xorazmga harbiy yurish uyushtirish orqasida muvaffaq bo‘lgan. Ammo 1510 yili Marv atrofida Muhammad Shayboniyxonni enggan yeronlik safaviylardan Ismoil paytdan foydalanib Xorazmda o‘z ta’sirini o‘tkazish niyatida bu yoqqa lashkar bilan noiblarni yuboradi. Ammo Sharif So‘fiy va Mirzo Xizr kabi mahalliy namoyandalar ularga bo‘yin tovlamaslikka o‘tib, bunda dashtiqipchoqlik siyosiy kuchlarga suyanadilar. Natijada, 1511 yili Xorazmda dashtiqipchoqlik Elbarsxon hokimiyatni qo‘lga oladi[1]. Elbarsxon esa aslida shayboniylar sulolasidandir. Yanada aniqroq aytganda, Samarqand taxtini temuriylardan toritib olgan Muhammad Shayboniyxonning beshinchi ajdodi Pulod (Fulod) ikki o‘g‘illi bo‘lgan: Ibrohim va Arabxon (Arabshoh) Muhammad Shayboniyxon Ibroximning to‘rtinchi avlodi bo‘lsa, Elbars Arabxonning beshinchi avlodidir. Bir so‘z bilan aytganda ular amakivachchalardir. Demak, 1505 yili Muhammad Shayboniyxon tomonidan Samarqandga bo‘ysundirilgandan so‘ng olti yil davomida Xorazmda shayboniylarning hukmronligi ustivor bo‘lib kelgan desak, 1511 yili esa

[1] Шажарийи турк, 120-123-бетлар.

mazkur viloyatda shayboniylarning boshqa bir oilasi namoyandalari hokimiyatni qo‘lga oldilar. Bu yyerda tabiiy bir savol tug‘ilishi mumkin: aslida bir sulola ekan, nima uchun xorazmlik shayboniylar alohidalikka intilganlar, markazi avval Samarqandda, so‘ng esa Buxoroda bo‘lgan, Muhammad Shayboniyxon oilasi bilan kelisha olmaganlar? Bu yyerda kamida ikki sabab bor. Birinchidan, bir sulolaga mansub bo‘lishlaridan qat’i nazar bu ikki oila orasida ilgaridan qarama-qarshilik bo‘lib kelgan. Masalan, Muhammad Shayboniyxon o‘z vaqtida, hali Dashti qipchoqdaligida Elbarsning otasi Burka sultonni (Byerka) o‘ldirgandi[1]. Ikkinchidan, qaysi oila yo sulolaga tegishli bo‘lishiga qaramay, asrlar davomida, ko‘rib kelganimizdek, mahalliy kuchlar doimo markazdan uzoqlashishga intilib kelganlar. Xorazmga kelib hokimiyatni olgan shayboniylarning boshqa bir tarmog‘i namoyandalari ham bundan mustasno emasdilar.

Demak, 1505-1770 yillar orasida Xorazmni asosan shayboniylar sulolasi namoyandalari boshqarganlar.Ko‘rinib turganidek, ularning, aniqrog‘i Arabxon naslidan tarqagan shayboniylarning hukmronlik yillari Ibrohimning avlodlari – Buxoro shayboniylari hukmronlik faoliyatidan (1501-1601 yillar) ancha uzoq davom etgan. 1770 yili esa Xorazmda amaliy hokimiyat qo‘ng‘irot sulolasidan bo‘lmish Muhammadamin inoq qo‘lida mujassamlashadi. Va shu tariqa mazkur viloyatda yangi sulola - Qo‘ng‘irotlar faoliyati boshlangan.

Abulg‘oziy Bahodirxon, Munis qoldirgan ma’lumotlarga ko‘ra, 1511-1770 yillarda Xorazmda hukmronlik qilgan shayboniylar soni qirq atrofida edi. Shuning uchun ham ularning har biri haqida batafsil to‘xtalmay, eng asosiy voqealarga diqqatni qaratmoqchimiz.

Elbarsxon davridayoq (1511 – taxminan 1516) Xiva xonligining siyosiy geografiyasi shakllangan edi, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Zyero, bu paytda

[1] Таворихи гузида. Нусратнома, 162-165, 270-271-бетлар. *Камолиддин Биноий.* Шайбонийнома. Ўзбекистон ФА ШИ ЙЖ қўлёзмаси. Рақами 844, 56-варақ; Шажарайи турк, 118-120-бетлар.

xonlik g‘arbda Kaspiy dengizi, shimolda Orol dengizi xavzasi, janubda Atrek daryosi va Saraxs atroflarigacha bo‘lgan hududni o‘z ichiga olgan edi. Arabxon (1602-1621 yillar) davrigacha poytaxt Urganch hisoblanib, keyin esa Xivaga ko‘chirilgan. Shunga ko‘ra zamonaviy tarixshunoslikda xonlikni Xiva xonligi deyish odat tusiga kirgan.

Xivaliklar mazkur faoliyat maydoni bilan chegaralanmasdan ichki Xuroson, Buxoro xonligi yyerlariga doimo yurishlar yushtirib Buxoro ham Xorazmni markazga bo‘ysundirishga ko‘p marta harakat qilgan. Chunonchi, shayboniylardan Ubaydullaxon va Abdullaxon II davrlarida xivalik shayboniylar buxorolik suloladoshlariga bo‘ysunishga majbur bo‘lganlar. Ammo Abdullaxon II o‘limidan so‘ng o‘sha paytdagi Xiva xoni Xoji Muhammadxon (1560-1602 yillar) yana mustaqil siyosat yurgizish imkoniga ega bo‘lgan. XVII asrga kelib esa Xiva va Buxoro xonliklari o‘rtasidagi munosabatlarda bir oz o‘z garish yuz byergan. Ya’ni shu asrdan boshlab Buxoro xonligi boshqaruvini qo‘lga olgan yangi sulola – ashtarxoniylar namoyandasi Nazr Muhammadxon zamonida Xivada uning nomidan xutba o‘qilgani 1678 yili keyingi ashtarxoniylardan Subxonqulixonning Xivaga o‘z noibi Shohniyoz eshikog‘oboshini yuborgani hisobga olinmasa, xivaliklardan Abulg‘oziy Bahodirxon (1644-1664 yillar) va Anushaxon (1664-1687 yillar) davrlarida Buxoro xonligi ichkarisiga mutassil harbiy yurishlar uyushtirilib turilganini bilamiz. Xususan, Abulg‘oziy Bahodirxonning o‘z i olti marta shunday tadbirni amalga oshirgan bo‘lsa, o‘g‘li Anushaxon 1684 yili xatto Samarqandni egallab bu yerda o‘z nomidan xutba o‘qitgan. Lekin shunga qaramay Buxoro keyinchalik ham Xivaga nisbatan olib borilgan siyosatidan voz kechmagan. Chunonchi, yuqorida tilga olingan Muhammad Amin inoq Xivada xokimiyatni qo‘lga olishda Buxoro madadiga muyangani ma’lum. Bu xaqda Xorazmlik tarixchi Munis guvoxlik byeradi.

Shunday qilib, 1770 yildan boshlab Xivada yangi sulola - Qo‘ng‘irotlar siyosiy faoliyati boshlanadi. Qo‘ng‘irotlar faoliyati ham, bir tomondan, buxorolik mang‘itlar sulolasi tarixining ibtidosiga o‘xshab ketadi. Ya’ni Muhamman Amin va uning o‘g‘li Avaz (1790-1804 yillar) amaliy xokimiyatni qo‘lga tutgan xolda xonlik boshlig‘i sifatida soxta xonlarni e’lon qilganlar. Faqat 1804 yildagina navbatdagi Qo‘ng‘irotlardan bo‘lmish Eltuzarning o‘zi shaxsan xonlik taxtiga chiqib, masalaning rasmiy tomonini ham hal qiladi. Lekin u uzoq hukmronlik qilmagan. Keyingi hukmdor Muhammad Rahimxon (1806-1825 yillar) xonlikni ham siyosiy, iqtisodiy jixatlardan mustahkamlashga uringan bo‘lsa, uning davomchisi Ollohqulixon (1825-1842 yillar) asosiy e’tiborni Xuroson va Buxoro bilan munosabatlarga qaratilgan. Shu yyerda bir narsaga fikrni jalb qilish o‘rinlidir. Xuroson uchun kurashni asosan XVII asrdan boshlab xivaliklar olib organlar. Buxoro siyosiy kuchlari bu borada nisbatan ancha sust siyosat yurgizib, ko‘proq Qo‘qon va Xiva xonliklariga qarshi kurash bilan band bo‘lganlar. Buni ham tushunsa bo‘ladi. Chunki Buxoro o‘rtada bo‘lib ham sharq, ham g‘arb tomondan kurash olib borgan. Shuning uchun ham xivaliklarning Xurosonga nisbatan siyosati jadalroq bo‘lgan. Chunonchi, Ollohqulixon boshchiligida olti marta, Muhammad Amin II (1845-1855 yillar) davrida esa o‘ndan ortiq marta Xurosonga yurish qilgan. Ammo Buxoro va Xuroson «ishqi»da bo‘lgan Qo‘ng‘irotlar bostirib kelayotgan Rossiya xavfiga boshqa xonliklar kabi qandaydir bir beparvolik bilan qaraganlar. Mana shu befarqlik natijasi o‘laroq Muhammad Rahimxon II (1865-1910 yillar) Rossiyaning 1873 yilgi bosqinidan so‘ng, eng avvalo, Xorazm ahli va tabiiy ravishda Qo‘ng‘irotlar sulolasi begonalarga qaramlik holatiga tushib qoladilar. Qachonlardir bobolari soxta xonlarni taxtga o‘tqazib, amaliy hokimiyatni qo‘lda tutgan bo‘lsalar, endi Qo‘ng‘irotlardan Muhammad Rahim II va sulolaning so‘nggi

namoyandasi Isfandiyor (1910-1918 yillar) Rossiya impyeriyasi ixtiyoridagi qo‘g‘irchoq xonlarga aylanganlar[1].

[1] Хива шайбонийлари ва қўнғиротлари фаолияти хақида қаранг: Шажарайи турк, 120-188-бетлар; Фирдавс ул-иқбол, 3-5-боблар; Шажарайи Хоразмшощий, 5-16-боблар.

2-bob. O‘zbek davlatchiligi tarixida Qo‘ng‘irotlar sulolasining o‘rni

2.1. Qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmdorlari davrida Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot

Xiva xonligidagi boshboshdoqliklar, o‘zaro to‘xtovsiz ichki urushlarga kimdir chek qo‘yishi tarixiy zaruriyatga aylandi. Chunki, xonlikning iqtisodiy ahvoli avvalo siyosiy tarqoqlikdan, o‘zaro ichki urushlardan, ayni paytda chet el bosqini oqibatlaridan katta zarar ko‘rmoqda edi.

Ikkinchidan, xalq o‘zining beomon talanishi, tinimsiz urushlar tufayli xonavayron bo‘lishi oqibatida tevarak-atrofdagi yurtlarga qochib ketib jon saqlashga majbur bo‘lgan edi. Natijada, ko‘plab yyerlar tashlandiq holatga tushib qoldi.

Bu omillar o‘z navbatida zodagonlarning o‘zaro urushlari va qabilalar o‘rtasidagi mojarolarni to‘xtatishga qodir bo‘lgan kuchli markaziy hokimiyatning barpo etilishini taqozo etar edi. Bunday hokimiyatni barpo etishga qodir kuch sifatida maydonga o‘zbeklarning qo‘ng‘irot qabilasi chiqdi. Bu zaruriyatning natijasi o‘laroq, XVIII asrning 60-yillaridan boshlab Xiva xonligida hokimiyatni qo‘ng‘irot qabilasi boshliqlari asta-sekin o‘z qo‘llariga ola boshladilar. Yirik zodagonlar va ruhoniylarning madadiga tayangan qo‘ng‘irot qabilasining yo‘lboshchisi Muhammad Amin inoq 1770 yilda xonlikda turkmanlarning qarshiligini sindirib mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o‘rnatdi. 1770 yildan boshlab Xiva xonligida hokimiyat amalda Xiva Qo‘ng‘irotlari qo‘liga o‘tdi. 1782 yilda esa Buxoro xoni qo‘shinlari hujumini daf etdi[1]

Muhammad Amin inoq mustaqil beklarni ham bo‘ysundirganidan keyin Xiva xonligida iqtisodiy hayot bir qadar jonlana boshlandi. O‘zga yurtlarga qochib ketgan axoli asta-sekin qaytib kela boshladi.

[1] Норқулов Н., Жўраев У. Ўзбекистон тарихи.- Т.:Шарқ, 2000. 135 б.

Lekin, Muhammad Amin ham, uning o‘g‘li Avaz (1790-1804) ham haliyam inoq unvonida chetdan: chingiziy qozoqlardan chaqirilgan xonlar (ular soxta xonlar edilar, butun hokimiyat inoqlar qo‘lida edi) nomidan hokimiyatni boshqarganlar. Faqatgina Muhammad Amin inoqning nabirasi Eltuzar (1804-1806) 1804 yilda chetdan chaqirilgan soxta xon Abulg‘ozini taxtdan tushirib, o‘ziga xon unvonini qabul qildi. Shunday qilib, qo‘ng‘irot qabilasi Xiva xonligi taxtini 1804 yilda rasman ham egalladi.[2]

Eltuzar 1806 yilda Buxoroga qarshi urush chog‘ida halok bo‘ladi. Uning o‘rniga xon ko‘tarilgan inisi Muhammad Rahimxon I (1806-1825) 1811 yili orolliklarni taslim bo‘lishga majbur qildi. 1822 yili esa Marv ustidan hukmronligini o‘rnatdi.

Xiva xonligi xududlari Muhammad Rahimxonning o‘g‘li Ollohqulixon (1825-1846) hukmronligi davrida ancha kengaydi. Uning sarxadlari Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joyidan Turkmaniston hududidagi kushkagacha bo‘lgan yyerlarni o‘z ichiga olar edi.

Bu davrda xonlikning 800 mingga yaqin aholisi bo‘lib, ularning 65 foizini o‘zbeklar, 26 foizini turkmanlar, qolgan qismini esa qoraqalpoq va qozoqlar tashkil etardi. Aholining ko‘pchiligini tashkil etgan o‘zbeklar qabila-qabila, urug‘-urug‘ bo‘lib xonlikning shimoliy qismida – asosan Amudaryoning quyi oqimidagi yyerlarda istiqomat qilardilar.

Xiva xonligi – Pitnak, Xazorasp, Xonqa, Urganch, Qo‘shqo‘pir, G‘azovat, Qiyot, Shohabboz (Shohboz), Xo‘jayli, Chumanay, Qo‘ng‘irotdeb ataluvchi 15 viloyatga, Beshariq va Qiyot-Qo‘ng‘irotdeb ataluvchi ikkita noiblikka, shuningdek, xonning bevosita o‘z iga qaram bo‘lgan tumanlarga bo‘lingan edi.

Oliy hokimiyatni xon amalga oshirardi. Inoq, otaliq va biy kabi unvonlarga ega bo‘lgan yuqori martabali amaldorlar xonlik hayotida juda

[2] Ўша жойда.

katta ta’sir kuchiga ega edilar. Davlat hayotiga oid masalalarni hal etish maqsadida Muhammad Rahimxon 1 davrida nufuzli amaldorlardan iborat devon, ya’ni davlat kengashi tuzilgan edi.[1]

Sud ishlari shariatga asoslangan bo‘lib, uni yuritish ruhoniylar qo‘lida edi. Davlat tili o‘zbek tili hisoblanardi.

Xiva xonligining ijtimoiy hayotida O‘rta Osiyoning boshqa ikki xonligidagidek sokinlik hukm surar edi. Bu sokinlik xonlikning jahon taraqqiyotidan deyarli uzilib qolganligi bilan bog‘liq edi. Mamlakatda siyosiy tarqoqlik hukm surayotgan, natural xo‘jalik ustun bo‘lgan, to‘xtovsiz davom etgan o‘zaro ichki urushlar hamda tashqi hujumlar oqibatida mamlakat iqtisodi izdan chiqqan bir sharoitda ijtimoiy hayot bundan boshqacha bo‘lishi mumkin ham emas edi.

Hukmdorlar davlat, millat taqdiridan ko‘ra o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ustun qo‘yar edilar.

Xiva xonligining asosiy boyligi yer xisoblanardi. Bu yerlar sug‘oriladigan (ax’ya) va sug‘orilmaydigan (adra) yerlardan iborat edi. Egalik shakliga ko‘ra, Xiva xonligining yerlari ham, Buxoro xonligida bo‘lganidek, uchga bo‘lingan edi:

1. Davlat yerlari (amlok); 2. Shaxsiy mulk (xususiy yerlar); 3.Vaqf yerlari.

Ayni paytda Xiva xonligida yer egaligi Buxoro va Qo‘qon xonligidagi yer egaligidan farq ham qilardi. Xususan, xon va uning qarindoshlari barcha yerlarning deyarli yarmiga egalik qilishgan. Qolgan yerlar davlat ixtiyoriga olingan (vaqf yerlaridan tashqari). Davlat yerlarida ijarachi dehqonlar mehnat qilganlar.

[1] Норқулов Н., Жўраев У. Ўзбекистон тарихи.- Т.:Шарқ, 2000.136 б.

Xon va boshqa xususiy mulk yerlarida dehqonchilik qiluvchilar yarimchilar deb atalgan. Bunday deb atalishga ularning yetishtirgan hosilning yarmini ijara xaqqi uchun byerganliklari sabab bo‘lgan edi.

Xonning qarindoshlari o‘z xususiy yerlaridan davlatga soliq to‘lamas edilar. Davlat soliqlaridan ruhoniylar, katta amaldorlar, tarxon yorlig‘i olganlar ham ozod etilgan edilar.

Mayda yer egalari tobora xonavayron bo‘lib borganlar. Oxir-oqibatda, ular yerlaridan judo bo‘lganlar.

Xiva xonligi aholisi asosan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanar edi. Qishloq xo‘jaligining asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etardi.

Xonlikda dehqonchilik qilish juda mushkul sharoitlarda olib borilardi. Chunki yerlar Amudaryodan chiqarilgan katta kanallar orqali sug‘orilardi. Joylarda esa ekinlarni sug‘orish ish hayvonlari kuchi bilan chig‘irlar yordamida amalga oshirilardi. XVI asr oxiri-XVII asr boshlarida Amudaryo o‘zanining o‘zgarishi, daryo avvalgi yo‘nalishining qurib borishi xonlikda ichki siyosiy ahvol qanchalik og‘ir bo‘lmasin, hukmdorlarni irrigatsiya ishlariga e’tibor berishga majbur etgan. Arab Muhammadxon (1602-1621) zamonida To‘q qal’asi yonidan kanal qazilgan. Ali Sulton davri (1558-1567)da Yangiariq , Toshli, Yormish kanallari qurilgan. 1861 yilda Shohobod kanali ishga tushirildi. [1]

XVIII asrning 70-yillarida Davkor ko‘liga quyiladigan irmoqlarda to‘g‘onlar qurildi.

XIX asr boshlarida Amudaryodan Lavzan arig‘i chiqarilgan va u keyinchalik katta kanalga aylantirilgan. Bu kanaldan Parsu, Xo‘jayli, Ko‘hna Urganch oralig‘idagi yerlar sug‘orilgan. 1815 yilda Qilich Niyozboy katta kanali qazildi. Undan Daryoliqning o‘ng sohilidagi yerlar sug‘orildi. 1831 yilda Lavzan ko‘lidan ariq qazilib, Ko‘hna Urganch sug‘orildi. 1846 yilda

[1] Норқулов Н., Жўраев У. Ўзбекистон тарихи.- Т.:Шарқ, 2000.138 б.

Amudaryoning eski o‘zaniga to‘g‘on qurilib, u yerdan chiqqan suv bilan Ko‘hna Urganchning janubidagi yerlarni, katta Xonobod kanali qazilishi bilan esa Vazir atrofidagi, Gandum qal’a va az darasidagi yerlarni sug‘orish mumkin bo‘ldi.

Xiva xonligida ham soliq va majburiyatlar haddan tashqari ko‘p bo‘lgan. Asosiy soliq salg‘ut, ya’ni yer solig‘i edi. Bundan tashqari, alg‘ut (bir yo‘la to‘lanadigan soliq), miltiq puli (qurol sotib olish uchun aholidan yig‘iladigan jarima), arava oluv (aholining qo‘lidagi aravalarni davlat ishlariga safarbar etish), uloq tutuv (aholining qo‘lidagi otlar va tuyalarni safarbar etish), qo‘nalg‘a (elchilar va amaldorlarga ko‘chib o‘tish uchun joy berish), so‘ysun (qo‘nalg‘a chog‘ida amaldorni mehmon qilish uchun mol so‘yish), chopar puli (soliq yig‘ish xabarini etkazuvchilar uchun xaq to‘lash), tarozuyona (tarozibonga to‘lov xaqi), mirobona (mirob uchun yig‘im), darvozabon puli (yukni o‘tkazganlik uchun shahar darvozasi qorovuliga to‘lanadigan xaq), mahalliy hukmdorga haq to‘lash, qorovulga haq to‘lash, pul solig‘ini qabul qilayotganda xazinachiga haq to‘lash, qo‘ruqbonga (o‘rmon yoki yaylov nazoratchisiga) haq to‘lash, mushrifona (hosilni tekshiruvchi va uning miqdorini aniqlovchi amaldorga haq to‘lash), afanak puli (begar majburiyatini o‘tash haqida xabar berganlik uchun to‘lanadigan haq), chibik puli (ommaviy ishlarda qatnashishdan ozod etilgani uchun to‘lanadigan xaq), ruhoniylarga to‘lanadigan haq.[1]

Ko‘rinib turibdiki, mehnatkash xalq 18 ta soliq va jarima to‘lagan. Bu soliq va to‘lovlar oddiy mehnatkash yelkasiga og‘ir yuk bo‘lib tushar edi.

Bundan tashqarii, mehnatkash xalq tinkasini qurituvchi quyidagi bir qancha majburiyatlarni ham o‘tar edilar:

Begar – rasman 12 kunlik davlat majburiyati; unga ko‘ra, qishloqning har bir xonadonidan bir kishidan odamlarni to‘plashardi. Ular har yili turli

[1] Норқулов Н., Жўраев У. Ўзбекистон тарихи.- Т.:Шарқ, 2000.138-139 б.

qurilish ishlarida, kanal qazishda, yo‘llarni tuzatishda, xon saroylari qurilishida ishlar edilar. Begarning muddati 12 kun deb belgilangan bo‘lsa-da, aslida u bir oy, undan ko‘proqqa ham cho‘z ilar edi.

2) Qazu – bu butun qishloq aholisini katta va kichik kanallarning bir qismini tozalashga safarbar etish majburiyati.

3) Ichki va obxo‘ra qazu – har yili kanallarning suv taqsimlagichini tozalash majburiyati

4) Xachi – himoya dambalari qurish va ularni mustahkamlashda qatnashish majburiyati

5) otlanuv – xon ovida qatnashish uchun lashkarlikka kelish.[1]

Sug‘orish tizimi bilan bog‘liq majburiyatlar oddiy mehnatkash xalq yelkasidagi og‘ir yuk edi. Chunki, bu majburiyatlarning barchasi qo‘lda ketmon bilan bajarilar, tuproqlar esa zambilda tashilar yoki yelkada ko‘tarilib chiqarilar edi. Suv chiqarish va himoya to‘g‘onlari tuproq, yog‘och hamda chimlardan qurilar Ediki, ko‘pincha ular suvning bosimiga bardosh bera olmas edi. Ana shunday paytlarda ular qaytadan qurilardi. Bosimga bardosh berganlari esa bir yildan ortiqqa chidamas edi. Kelasi yili ularni qayta qurish kerak edi.

Mehnatkash xalqning buningsiz ham og‘ir qismatini o‘zaro ichki urushlar, vayronalik keltiruvchi tashqi hujumlar battar og‘irlashtirgan edi.

Xonlikda ocharchilik ham bo‘lib turardi. Natijada, qo‘ng‘irot sulolasi hokimiyat tepasiga kelishi arafasida xonlik aholisi qo‘shni mamlakatlarga ko‘chib ketishga majbur bo‘la boshlagan edi. Masalan, Xivaning o‘zida 40 ga yaqin oila qolgan edi, xolos.

Xonlikning eng yirik shaharlaridan biri Xiva edi. U XVII asr boshlaridan to 1920 yilgacha Xiva xonligining poytaxti bo‘lgan. Xiva shahri qadimda Xeyvaq deb atalgan.

[1] Норқулов Н., Жўраев У. Ўзбекистон тарихи.- Т.:Шарқ, 2000. 139 б.

Xivaning mashxurligi u bunyod etilgan davrlaridanoq Sharq va G‘arbni bog‘lovchi savdo yo‘li o‘tganligi bilan izohlanadi.

Milodning IV asri boshlarida Xiva Xorazm davlati bilan Eron Sosoniylari davlati tarkibiga kirgan.

XVII asr boshlarida Amudaryo o‘zani o‘zgarishi oqibatida xonlik poytaxti Urganchda aholi yashashi uchun noqulay vaziyat vujudga kelgach, xonlik poytaxti Xiva shahriga ko‘chirilgan.

XVIII asr o‘rtalarida Eron shohi Nodirshoh qo‘shinlari, keyinchalik turkmanlarning yovmut qiblasi hujumi oqibatida shahar vayron qilingan edi.

Xiva xoni Muhammad Amin inoq hukmronligi davrida (1770-1785) turkmanlarning yovmut qabilasi qo‘shinlari tor-mor etilgan va Xiva shahri qayta tiklangan.

XIX asr o‘rtalarida Xiva xoni Ollohqulixon (1825-1842) davrida shahar atrofi yana mustahkam devor bilan o‘ralgan. Devorning uzunligi 6 km bo‘lgan. Xiva shaharining me’moriy qiyofasiga 18 asr oxiridan boshlab asos solina boshlagan va bu ish XX asrning boshlarigacha davom etgan.

Shaxar me’moriy ansambli yahlitligi jixatidan O‘rta Osiyoda yagona hisoblanadi. Bu ansamblning ichida dastlab Ichan qal’a (ya’ni ichki qal’a, shahriston) bunyod etilgan. Ichan qal’ada – xon saroyi, aslzodalar yashaydigan maskan, maqbara, madrasa, masjidlar joylashgan. Ichan qal’aning umumiy maydoni 26 gektar. Devorning uzunligi 2200 metr.

Ichan qal’ada o‘zaro ko‘ndalangiga kesishadigan ikkita katta ko‘cha o‘tgan. Bu ko‘chalarda to‘rtta darvoza qurilgan. Bu darvozalardan Dishan qal’aga chiqiladi. Dishan qal’ada esa hunarmand, kosiblar, savdogarlar yashashgan va ularning rastalari joylashgan. Dishan qal’aning uzunligi 6250 metr bo‘lib, uning o‘nta darvozasi bo‘lgan.

Xiva shahrida saqlangan me’moriy yodgorlik Sayid Olovuddin maqbarasidir. Bu maqbara 14 asrda qurilgan edi. Shuningdek, Xivada ko‘hna

ark, masjidi jome', Oq masjid, Uch avliyo maqbarasi, Sherg'ozixon maqbarasi, Ollohqulixon karvonsaroyi, Qutlug' Murod inoq madrasasi, Muhammad Amin inoq madrasasi, Ollohqulixon bunyod ettirgan 163 xonadan iborat Toshxovli saroyi va boshqalar muhim tarixiy me'morchilik yodgorliklari bo'lib, ular xivalik o'z kasbining ajoyib ustalari – naqqoshlar, toshganch, yog'och o'ymakorlarining mahoratini ko'z -ko'z qilib turadi.

Bularning bari 18 asr oxiri – 19 asr boshlarida O'rta Osiyoda me'morchilik san'atining qayta tiklanganligidan, bu borada ayniqsa Xiva xonligi me'morlari dong taratganligidan dalolat beradi.

Xiva nafaqat O'rta Osiyoda, balki dunyoda ham mashxur shahar. Buning isboti – 1997 yilda YUNESKO qarori bilan shu shahar 2500 yilligi nishonlanganligidir.

2.2. Qo'ng'irotlar davrida Xiva xonligidagi madaniy hayot

1873 yilda Xiva xonligi chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi. Uning haqiqiy mustamlakasiga aylandi. Chorizmning mudhish mustamlakachilik siyosati Xiva xonligining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga juda katta zarar yetkazgan bo'lsada, uni to'xtatib qololmadi. Mustamlakachilik davrida Xivada sekinlik bilan bo'lsada, qurilish va obodonchilik ishlari davom ettirildi. O'sha davrdagi og'ir qiyinchiliklarga qaramay, Xivada bir qator mahobatli me'moriy qurilishlar amalga oshirildi. Jumladan Xivaning Ota darvozasi tashqarisida Bekajon beka majmuasi (1894 y) yaratildi. To'rt Shabboz majmuasi kengaytirildi (1885 y), Nurullaboy saroyidagi madrasa va boshqa me'moriy yodgorliklar o'sha davrda qurilgan edi. Ayrim mahallalarda ham masjid, madrasa, hovuz qurilishlari davom etdi. O'sha davrdagi qurilish uslubiga hos xususiyat shu bo'ldiki, an'anaviy me'morchilik uslubiga Yevropaning qurilish san'atidagi muhandislik uslubi qo'shilib, o'ziga xos yangi mazmun kasb etdi.[1] Ayniqsa, bu holatni Xivada

[1] Матниёзов М., Сотлиқов А. Жахон тарихи ва маданиятида Хоразм.- -Ургенч:Хоразм, 1999.

XX asr boshlarida bunyod etilgan me’moriy qurilishlarda binolarning tashqi ko‘rinishi, rejalashtirilishi hamda ularning ichki bezaklarida aniq ko‘rishimiz mumkin.

Xivada ko‘pgina bunyodkorlik ishlari taraqqiyparvar davlat arbobi Islom Xo‘ja faoliyati bilan bog‘lik. Islom Xo‘ja Muhammad Rahimxon (Feruz) va Asfandiyorxon (1910-1918 yy) zamonida bosh vazir - vaziri akbar lavozimida xizmat qildi. U xonlikning ijtimoiy va madaniy hayotidagi ko‘pgina ilg‘or o‘zgarishlarning tashabbuskori edi. Islom Xo‘ja Xiva xonligiga zamonaviy sanoat korxonalari keltirib turish, uni markaz bilan bog‘laydigan temir yo‘l tarmog‘ini qurish, mustahkam ko‘priklar bunyod etish, shaharlarga zamonaviy bilim asoslarini o‘rgatuvchi rus-tuzem va yangi usul maktablarini ochish kabi bir qator ilg‘or g‘oyalarni oldinga surdi. Ana shu tadbirlarni amalga oshirishda jonbozlik ko‘rsatdi. Uning bevosita tashabbusi bilan Xivada ko‘pgina me’moriy qurilishlar barpo etildi. Shulardan Xivaning markazida qo‘sh qavatli (1906-1910 yy) rus-tuzem maktabi binosi bunyod etildi. Islom Xo‘ja madrasasi va masjidi, Islom Xo‘ja minorasi (ko‘k-yashil koshin sopolchalar bilan bezatilgan bo‘lib, u O‘rta Osiyodagi eng chiroyli va baland (56 metr) minoralardan hisoblanadi) Endilikda bu minora Xivaning ramziga aylanib qoldi. Shuningdek, Islom Xo‘ja Xivaning Deshon qal’asida Yevropa-Xiva uslubida qurilgan kasalxona, dorixona, pochta-telegraf binosi, Nurulla bog‘idagi Asfandiyorxonning yozgi saroy-qabulxonasi, Qibla Tozabog‘ saroyi va boshqa ko‘pgina me’moriy qurilishlarga ham rahbarlik qildi.[1]

Ana shu qurilishlarda mahalliy ustalar bilan birga rus va nemis ustalari, naqqoshlari ham yonma-yon mehnat qildilar. Shunday qilib, Qo‘ng‘irotlar sulolasidan bo‘lgan xonlar davrida poytaxt shahar Xivada bunyod etilgan tarixiy-me’moriy yodgorliklar o‘zining betakror go‘zalligi va mustahkamligi

[1] Матниёзов М., Сотлиқов А. Жахон тарихи ва маданиятида Хоразм.- -Ургенч:Хоразм, 1999

bilan ajralib turadi. Ular Xivaning mohir quruvchi ustalari, muhandislari, o‘ymakor va koshinkor naqqoshlari yuksak mahoratidan darak beradi.

Xivadagi jahonga mashxur tarixiy me’moriy obidalarni bunyod etishda usta Adina Muhammad, Muhammad Murod Xazoraspiy, koshinkor naqqosh NurMuhammad usta Qalandar o‘g‘li, usta Muhammad Pano, usta naqqosh Abdullajin, o‘ymakor usta Nodir Muhammad, usta naqqosh Abdulla Bolta o‘g‘li kabi mohir ustalarning alohida xizmatlari katta. Xivadagi ana shu me’moriy san’at asarlari ularning aql-zakovati, qalb harorati, mohir qo‘llari bilan bunyod etildi.[1]

Xiva nafaqat betakror tarixiy yodgorliklari, shuningdek so‘lim bog‘lari, zilol suvli quduqlari va hovuzlari bilan mashxurdir.Ular ham Xivaning o‘ziga xos go‘z alligiga shukuh baxsh etadi.

Xivaning 2500 yillik to‘yida so‘z lagan nutqida Birinchi Prezidentimiz I.Karimov shunday degan edi:» Xorazm va Xiva zaminida yashagan Paxlavon Maxmud, Sulton Vays, Nasriddin Rabg‘uziy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Bahovuddin Valod va uning buyuk farzandi Jaloliddin Rumiy, Abulqosim al-Xorazmiy, Ismoil Jurjoniy, Sirojiddin Sakkokiy, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Safo Mug‘oniy, Chokar Sheroziy, Xojixon, Bola Baxshi kabi allomalar, shoirlar va san’atkorlar nomini faxr bilan tilga olamiz.

Darhaqiqat, jahonning muhtasham shaharlaridan bo‘lgan Xiva o‘zining ilm-ma’rifati va yuksak me’moriy san’ati bilan umumbashariy sivilizatsiya taraqqiyotiga bebaho xissa qo‘shib keldi. Ichon Qal’a va Deshon qal’adagi tarixiy me’moriy obidalar, madrasalar va boshqa yodgorliklar xalqimizning asrlar davomida avloddan avlodga meros tariqasida o‘tib kelayotgan yuksak salohiyatini va nodir san’atini jahonga namoyish etmoqda.[2]

---

[1] Матниёзов М., Сотлиқов А. Жащон тарихи ва маданиятида Хоразм.- -Ургенч:Хоразм, 1999

[2] Каримов И. Хиванинг 2500 йиллигига бағишланган тантанали маросимда сўзлаган нутқи. "Халқ сўзи"- 1997 йил 22 октябр

Prezident Farmoni bilan 1997 yil ohirida Xivada ochilgan Xorazm Ma’mun akademiyasi Xorazm madaniy hayotida katta voqea bo‘ldi. Bu ilmiy tadqiqot markazi Xorazm va Xiva tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu azim shahar tavalludining 2500 yilligini xalqaro miqyosda nishonlanganligi bunga yana bir dalildir.

Xorazmda madaniy taraqqiyotning juda ko‘p sohalari xalq amaliy san’ati, rassomchilik, monumental haykaltaroshlik, musiqa, bastakorlik va raqs san’ati, adabiyot va she’riyat o‘tmishga borib taqaladi. Shu jihatdan, I.Karimovning Xorazm viloyati xalq deputatlari kengashida 1996 yil 16 mart kuni aytgan quyidagi so‘zlari alohida ahamiyat kasb etadi:»Xorazm noyob madaniyat, nafis san’at, yuksak ma’rifat, turmushning dono falsafasi va insonparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan adabiyot va she’riyat maskani, dunyoviy ilm o‘choqlaridan biri».[1]

Darhaqiqat, qadimiy Xorazm madaniyatining bunyodkorlari badiiy maxoratda yetuk va barkamol bo‘lganlar. Antik tarixchilar va geograflarning bergan ma’lumotiga ko‘ra Xorazmda diniy marosimlar, xalq bayramlari va tomoshalarini o‘tkazish qadimdan odat tusiga kirgan. Ayniqsa, muqaddas olov atrofida o‘tkazilgan ana shunday diniy marosimlarda sozanda va xonandalar, raqqosa va baxshilar, masxaraboz va qiziqchilar ishtirok etib, o‘z mahoratlarini namoyish etgan. Ana shu bayramlarda xalqimiz orasida shu kunimizgacha saqlanib kelayotgan raqs o‘yinlari, «Lazgi», «Norim-norim», «Chag‘aldoq», dor o‘yini, xo‘qqachilik o‘yinlari sevib ijro etilgan, baxshilarning -qaxramonlik dostonlari kuylangan va xotin-qiz xalfalarning o‘ynoqi laparlari tinglangan.[2] Xorazm va xivaliklarning ana shunday an’anaviy xalq o‘yinlari o‘tmishdan hozirgi kunimizgacha saqlanib kelingan.

---

[1] Каримов И. Хоразм вилояти халқ депутатлари Кенгашида сўзлаган нутқи. - Халқ сўзи. 1996 йил 17 март.
[2] Инсониятнинг илмий ва маданий мероси - учинчи минг йилликда.- Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари. Т.,1997.

Xorazmda xalq amaliy san’atining 60ga yaqin turlarini taraqqiy etganligini ko‘ramiz. Xiva va boshqa shaharlarda hunarmandchilik ishlab chiqarishida ixtisoslashish jarayoni shakllangan. Shaharlarda muayyan kasb-hunar bilan bog‘liq mahallalar, elatlar bo‘lib, ular zargarlar, misgarlar, bo‘yoqchilar, do‘ppichilar va hokazo deb nomlangan. Xalq hunarmandchiligining kundalik hayot uchun zarur bo‘lgan tarmoqlari, jumladan, temirchilik, misgarlik, mis, tosh, yog‘och va ganch o‘ymakorligi, zargarlik, duradgorlik, tikuvchilik, chitkorlik, bo‘yoqchilik, mo‘rachilik, quruvchilik, kunchilik, kavsh-maxsido‘zlik, kulolchilik, qurolsozlik va boshqa turlari rivoj topgan. Xiva va Xazorasp o‘zining qurolsozlari bilan ham mashxur bo‘lgan.

Ko‘hna ark va Toshhovlida xon va uning oilasi, saroy amaldorlari ehtiyojlari uchun zarur narsalar tayyorlab berishga ixtisoslashgan hunarmandlar muntazam ishlab turgan. Shaharning markaziy qismida bozor yaqinida hunarmandlarning do‘konlari va savdo rastalari aholiga xizmat ko‘rsatgan. Faqat XIX asrning 40-50 yillarida Xivada 700dan ortiq hunarmandchilik ustaxonalari va yana 200ga yaqin savdo-tijorat do‘konlari ishlab turgan.[1]

Xiva hunarmandlari tomonidan yuksak did bilan ishlab chiqilgan mahsulotlar nafaqat xonlikning o‘zida, balki qo‘shni chorvadorlar orasida, ayniqsa, xorijiy davlatlarda ham yuqori baholangan. Hunarmandlar shaharning yuksak madaniyatli tabaqasini tashkil qilgan. Shu boisdan ular orasidan mashxur yozuvchilar, shoirlar, bastakorlar va ijrochilarning yetishib chiqqanligi bejiz emas.

Xorazm, ayniqsa Xiva o‘zining misgarlari, ganch, yog‘och va tosh o‘ymakorlari bilan mashxur bo‘lgan. Xivadagi va xonlikning boshqa shaharlaridagi imoratlarning qo‘sh ravoqli eshiklari, darvozalar ustalarning

[1] Инсониятнинг илмий ва маданий мероси - учинчи минг йилликда.- Бухоро ва Хива шахарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари. Т.,1997.

yuksak san’atidan dalolat beradi. O‘sha vaqtda Xivada yashab ijod etgan usta Muhammad Pano, NurMuhammad, usta Abdullajon va boshqalar o‘ymakorlik va naqqoshlik san’atining yirik namoyondalari edi. Xivada misgarlik va zargarlik san’ati ham yuqori darajada rivoj topadi. Ular Xorazmning shu boradagi qadimiy an’analarini mohirlik bilan ijodiy rivojlantirdilar. Tilla va kumushdan rangdor toshlar qadalib yasalgan ayollar taqinchoqlari - uzuk, bilak uzuk, quloq sirg‘a, sochga, manglayga va ko‘krakka taqiladigan turli tumarlar va boshqalar yasalgan. Shuningdek, misdan yasalgan bo‘rtma va o‘yma naqshli lagan, silopcha, choynak, piyola, qumg‘on va boshqa buyumlar Xivada zargarlik va misgarlik san’atini qanchalik yuqori darajada bo‘lganligini ko‘rsatdi. Xivalik Abdulla misgar, Muhammad misgar, aka-uka Otajon va Bobojon misgarlarning nomlari xalq orasida hurmat bilan tilga olinadi.[1] Ular tomonidan yuksak did bilan yasalgan taqinchoqlar va misgar buyumlari jahonning bir qator mamlakatlaridagi san’at muzeylarini shu kunlarda ham bezab turibdi. Xivada kulolchilik san’ati ham alohida kasb etgan. Kulolchilikda ko‘za, xum, kosa, lagan va boshqa narsalar ishlangan. Ana shu sopol idishlar o‘zining rang-barangligi, chiroyli shakli va sifatliligi bilan ajralgan. Lagan va idish-tovoqlar ichki va tashqi tarafidan turli rangdor shakl va naqshlar bilan bezatilgan. Kulolchilik san’ati Xivadan tashqari Xazorasp, Xonqa va Bog‘ot tumanlarida ham rivoj topgan.

Xalq amaliy san’atining to‘qimachilik sohasiga ham e’tibor kuchaygan. Paxta tolasi jun, ipak, kandir va kanopdan to‘qilgan turli to‘qimachilik mahsulotlari - rangdor, gulli va gulsiz matolar - bo‘z , guldor chit, shoyi, ichki va ustki kiyimboshlar, ko‘rpa-to‘shaklar, chopon, po‘stin, olachalar tayyorlangan Xivaning to‘qimachilik mahsulotlari turkman, qozoq, qoraqalpoqlarga va Rossiya bozorlariga chiqarilib sotilgan. Shuningdek,

[1] Хива - жахон маданияти дурдонаси.- Урганч, 1997

jundan to‘qilgan har xil gullar va shakllar tushirilgan chiroyli Xiva gilamlari, polos, shol, kigizlari ichki va tashqi bozorda juda xaridorgir bo‘lgan. Jun to‘qimachiligi xonlik qaramog‘idagi chorvadorlar orasida ham rivoj topgan. Ayniqsa, turkmanlarning rangdor gilamlari va silikma po‘stinlariga xorijiy bozorlarda talab katta bo‘lgan. O‘sha davrda Xivada yana duradgorlik, yog‘ochsozlik, xaratlik va boshqa xunarmandchilik kasblari ham muhim ahamiyat kasb etgan. Yog‘ochdan turli xildagi asbob-uskunalar, eshik-dyeraza, darvoza ustinlar, to‘qish va ip yig‘irish dastgoxlari, arava, chiqir, beshik, arjo, sandiq, bolalar o‘yinchoqlari yasalgan. Yog‘ochsoz ustalar tomonidan yasalgan buyumlar o‘z ining chiroyliligi bilan aloxida ajralib turadi. Xivaning o‘ymakor ustalari tayyorlagan o‘yma naqshlar, chiroyli eshiklar, ustinlar, ustalcha va kursilar shu kunlarda jaxonning Moskva, Petyerburg, Parij shaxarlaridagi san’at muzeylarida noeb san’at asari sifatida namoyish etilmoqda.

Xiva xonligida me’morchilik va xalq amaliy san’ati bilan bir qatorda ilm-fan, adabiet, she’riyat, musiqa va ijrochilik san’atiga ham juda katta e’tibor byerilgan. Ayniqsa, Xivada tarixnavislik, adabietshunoslik, tarjimonlik va xattotlik ilmi aloxida taraqqiy etgan. Ana shu soxalar bo‘yicha etuk olimlar, moxir tarjimonlar, yozuvchi va shoirlar, ajoyib musiqachilar va ijrochilar etishib chiqqan. O‘sha davrda Xivada o‘tgan mashxur allomalar, fozilu-fuzalolar, mutafakkiru ma’rifatparvarlar o‘z ijodlari bilan jaxonga mashxur bo‘lganlar.

XIX asr oxirida Xiva adabiy muxitining yirik vakili Paxlavon Niez Muhammad Komil Xorazmiy (1825-1899yy) edi. U yoshligida madrasa ta’limini olib, tarix va adabietga aloxida ixlos qo‘ygan. O‘z davrining mashxur shoiri, tarjimoni, xattoti va bastakori bo‘lib etishdi. Fors va arab tillarini mukammal bilgan. Sayid Muhammad Raximxon Soniy saroyida dastlab xattot, mirzaboshi va so‘ngra devonbegi vazifalarida ishlagan. U o‘z

ining ijtimoiy-siyosiy faoliyatida ilg‘or, taraqqiyparvar tadibrlarni amalga oshirish bilan mashg‘ul bo‘ldi. 1874 yilda uning tashabbusi bilan chet eldan kitob bosishga mo‘ljallangan bosmaxona (toshbosma) keltiriladi. Shu bosmaxonada Navoiyning «Xazoinul maoniy» va «Hamsa» asarlari, Xorazm shoirlarining devonlari chop etilgan. Biroq, keyinchalik xon bilan Komil Xorazmiy oralariga sovuqlik tushib, u davlat ishlaridan chetlashtirilgan. Shundan keyingi hayotini u ijodiy ishga bag‘ishladi. Komil Xorazmiy so‘ngi yillarda og‘ir xastalikka chalindi va 74 eshida olamdan ko‘z yumdi. Komil Xorazmiy qator xorijiy davlatlarda, Rossiya va Afg‘onistonda, Moskva, Petyerburg, Mashxad va G‘azna shaxarlarida saexatda bo‘ldi. Uning 1880 baytlik she’riy devoni bizgacha etib kelgan. Devonda g‘azal, muhammas, musaddas, musabba, mustaxzod, muammo, ruboiy, qasida janrida ezilgan she’rlari joy olgan. She’rlarida ma’rifatparvarlik, ijtimoiy adolat, xalqchillik va olijanoblik g‘oyalari targ‘ib qilinadi va xaqsizlik, sazillik illatlari keskin qoralanadi.[1]

Komil Xorazmiy tarjimon sifatida ham mashxurdir. Jumladan, XUSh asr ezuvchilaridan Barxurdor bin Maxmur Turkman Faroqiyning «Maxbub ul-qulub» («Qalblar sevgilisi») asari va Sayfiyning «Laotif at-tafoif» nomli asarlarini forschadan tarjima qilgan. Xattotlik soxasida Muhammad Panox, Muhammad Sharif Tarro, Xudoybyergan Muxrikon kabi shogirdlarni tarbiyalab etishtirdi.[2]

Komil Xorazmiyning Xorazm klassik musiqa san’atini rivojlantirishda ham katta xizmatlari bor. Xorazm adabiy muxitida Komil Xorazmiyning sevimli farzandi iste’dodli shoir, etuk bastakor, moxir tarjimon va xattot Muhammad Rasul Polvonniez o‘g‘li Mirzo (1840-1923yy)ning aloxida xizmatlari bor. Mirzo saroyida mirzaboshilik lavozimida bo‘lgan. Uning

[1] Инсониятнинг илмий ва маданий мероси - учинчи минг йилликда.- Бухоро ва Хива шахарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари. Т.,1997.
[2] Матниёзов М., Сотлиқов А. Жахон тарихи ва маданиятида Хоразм.- Урганч:Хоразм,1999

«Margibin nozigin» devoni bizgacha etib kelgan. Devonda uning g‘azallari, muhammas, musaddas va masnaviylari joy olgan. Mirzo Navoiy, Munis va Ogahiy asarlaridan ilxom olgan. Uning g‘azallarida insonni ulug‘lovchi va ma’naviy kamolotga etaklovchi ilg‘or falsafiy g‘oyalar etakchi o‘rinni ishg‘ol qiladi. Tabibiy o‘z ining «Majmuat ush shuaro» tazkirasida Muhammad Rasul Mirzoning ijodiy faoliyatiga yuksak baho byergan.

Mirzo Xorazm musiqa san’ati rivojiga ham aloxida xissa qo‘shgan allomalardan. U padaribuzrukvori Komil Xorazmiyning ixtiro qilgan «Tanbur chizig‘i» notasini takomiliga etkazgan. Xorazm maqomlarini muayyan sistemaga keltirgan va musiqa san’atida Muhammad Raximxon Soniy (Fyeruz)ga ustozlik qilgan. Mirzo shu bilan birga arab, fors va ozarbayjon tillaridagi ko‘pgina asarlarni o‘z bek tiliga tarjima qilgan.[1]

Xiva xoni Muhammad Raximxon Soniy ham o‘z davrining etuk shoiri, bastakor va ma’rifatparvar hukmdorlaridan edi. U «Fyeruz» taxallusi bilan she’rlar yozgan va yoqimli kuylar bastalagan. Fyeruz g‘azal, muhammas, musaddas, masnaviy, ruboiy va boshqa janrlarda ijod qilgan. Uning she’riyatida g‘azal etakchi o‘rinni ishg‘ol etgan. Fyeruz g‘azallari «G‘azalieti Fyeruz», «Baezi Fyeruz» to‘plamlari orqali bizga etib kelgan. Fyeruz mashxur saroy shoirlari she’rlarini to‘platib, ularni «Baezi musaddasiy» va «Baezi muhammasot» to‘plamlariga jam qilgan. Bu to‘plamlar toshbosmada yaxlit asar sifatida nashr etilgan. Shuningdek, u o‘z avlodiga mansub murodiy, Kamyob, Oqil, G‘oziy, Sodiq, Sultoniy kabi shoirlarning she’riy asarlarini to‘platib, «Xafti shuora» («Etti shoir») nomi bilan chop ettiradi. Fyeruzning Xorazm musiqasi san’ati soxasida ham aloxida xizmatlari bor.[1]

---

[1] Инсониятнинг илмий ва маданий мероси - учинчи минг йилликда.- Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари. Т.,1997.

[1] Хоразм тарихи. 2 жилд.- Урганч,1997

Shuni ta’kidlash lozimki, maqomchilik san’ati XIX asr Xiva xonligi tarixida musiqa, bastakorlik, ijrochilik, raqqoslik, dostonchilik, xalfachilik va san’atning boshqa soxalari yuksak taraqqiyot bosqichiga yerishilgan davr bo‘ldi. Xorazmda va Xivada ana shu soxalarda iste’dodli siymolar etishib chiqdi. Xorazmning o‘tmish tarixida musiqa, bastakorlik, raqqoslik, baxshichilik va masxarabozlik san’ati soxasida yerishgan yutuqlari endilikda yangi ijodiy yo‘nalishlarda boyidi va rivojlantirildi.

Xorazmda musiqa san’ati ham uning tarixi kabi o‘z boshidan yuksalish va turg‘unlik davrlarini kechirdi. 1X-X asrlar Xorazmda madaniy hayotning boshqa soxalari kabi musiqa va ijrochilik san’atining yuksalish davri bo‘ldi. XUSh asr oxiri-XIX asr ham Xorazmda musiqa madaniyatining rivojlanishida aloxida bosqich bo‘ldi. Bu davrda Xorazmda musiqa madaniyatining rivojiga bebaho xissa qo‘shgan, uni boyitgan va yuqori pog‘onaga chiqib olishida o‘z xissasini qo‘shgan shoirlar, bastakorlar, ijrochilar, maqomchilar va dostonchilar etishib chiqdi. Munis, Ogahiy, Bayoniy, Komil Xorazmiylar bu ko‘xna san’atning sayqal topishi va takomillashuvida muhim rol o‘ynadilar. Ayniqsa, Sayyid Muhammad Raximxon Soniy o‘z saroyiga o‘sha davrning mashxur bastakor va ijrochilarini to‘plab, maqomchilar maktabi yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Xonning o‘z i ham she’riyat va musiqa san’ati bilan shug‘ullanib, ularning rivojiga o‘z ining munosib xissasini qo‘shdi. Sayid Muhammad Raximxon o‘z i ham «Fyeruz» taxallusi bilan mazmunli she’rlar ezdi va yoqimli kuylar bastaladi. Ayniqsa, Munis va Ogahiy g‘azallariga bag‘ishlab ko‘plab yangi kuylar bastaladi. Jumladan Fyeruz «Rost» maqomi cholg‘u qismiga «Sayqali Fyeruz» kuyini va yana 14ta yangi kuy va qo‘shiqlar yaratdi.[1] Fyeruz saroyida Xudoybyerdi ustoz, Niezjonxo‘ja, Maqsumjon qozi, usta Muhammadjon tanburchi, Abdusattor Maqsum Xo‘ja kabi musiqa va

[1] Инсониятнинг илмий ва маданий мероси - учинчи минг йилликда.- Бухоро ва Хива шахарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари. Т.,1997.

maqomchilik san’atining etuk vakillari ijod qildilar. Shu davrda yashagan shoir Xasanmurod qori Laffasiy o‘z ining «Tazkirai shuora» asarida tubandagilarni ezib qoldirgan:»Aning zamonida (Fyeruz) adabietchi, shoir, ezuvchilar taraqqiy qilib, olarga dog‘i tarbiyalar qiladur. Fyeruzdagi musiqaga dog‘i xavaskor bo‘lgandin, Komil Paxlavon Mirzo boshiga farmon qilib, olti yarim maqom tamburga katta bir nota taklif qiladur… Fyeruzning xuzurida doimiy etti, sakkiz nafar go‘yandalar, tanbur, g‘ijjak bulamon mashq etib o‘lturadurlar. Masalan, Muhammad Yoqub xarrot Demon va Muhammad Yoqub pozachi, Avaz dorchi kabilar. Bulomonga Qalandar do‘nmas degan Polvon usta kabilar hamisha Fyeruz xizmatida tayin bo‘lganidek, boshqa sipoizodalarning ba’zilariga doxil bo‘lmas edilar».[2] Fyeruz saroyidagi sozandalarning xizmati tufayli Xorazmda shashmaqomning o‘z iga xos yo‘nalishi maydonga keldi. Ulardan Xudoybyerdi ustoz qadimgi 12 maqomni mukammal bilgan va ko‘pgina shogirdlar tarbiyalab etishtirgan bastakorlardan edi. Moxir sozanda va musiqa nazariyasining etuk bilimdonlaridan bo‘lgan. U Xorazm va Buxoro maqomlarini puxta egallagan. Niezxo‘ja «Sayqali Niezxo‘ja» deb nomlangan maqom kuyini bastalagan.[1]

Xorazm musika san’atining rivojiga Komil Xorazmiy katta xissa qo‘shdi. U tanbur va g‘ijjakda maqom kuylarini moxshirlik bilan ijro etganki, uning qobiliyatiga xatto Fyeruzning o‘z i ham taxsinlar o‘qigan. Komil Xorazmiy Fyeruzning topshirig‘iga muvofiq Xorazm maqomlarini qog‘ozga tushirib, «Xorazm tanbur chizig‘i» (nota)sini ixtiro qildi. Bu chiziqqa «Rost» maqomining bosh qismini ezgan. O‘g‘li Muhammad Rasul (taxallusi Mirzo) otasi boshlagan ishni davom ettirib, Shashmaqomning qolgan ashula va cholg‘u yo‘llarini ezib tugallagan. Komil Xorazmiy

[2] Матниёзов М., Сотлиқов А. Жахон тарихи ва маданиятида Хоразм.- Урганч:Хоразм,1999

[1] Инсониятнинг илмий ва маданий мероси - учинчи минг йилликда.- Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари. Т.,1997.

bundan tashqari yana Shashmaqomning «Maqomi Rost» qismiga o‘z i yaratgan «Murabbai Komil» va «Peshravi Fyeruz» kuylarni bastaladi hamda ularni notaga tushirdi. Shu bilan Xorazm maqomchilik san’atini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tardi.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Xorazm musiqa va maqomchilik maktabining safi Muhammad Yoqub va Matyusuf Xarrot, Safo Mug‘anniy, Xudoybyergan Muxirjon, Sayd Fayzulla, Xojixon Bolta o‘g‘li, Muhammad Raxim Yoqub o‘g‘li kabi bastakor maqomchilar bilan to‘ldi. Xorazm musiqa sagn’atining rivojlanishida ularning ham munosib xissalari bor. Baxshilardan Axmad Baxshi, Qurbon Baxshi, Bola Baxshi kabilar, xotin-qiz xalfachilardan Xonim suvchi, Shukur Olloqulixon qizi, Ojiza (Anabibi Otajonova) kabi sozandalar ham musiqa va ijrochilik soxasida shuxrat qozongan.[2]

Shunday qilib, XIX asr oxiri-XX asr borshlari Xorazm va Xivaning madaniy hayotida ulkan burilish davri bo‘ldi. Shu davrda madaniyatimiz xazinasiga bebaho xissa qo‘shgan mashxur allomalar, tarixchi olimlar, shoirlar, tarjimonlar, musiqa va ijrochilar etishib chiqdi. Ular tomonidan yaratilgan ma’naviy boylik mustaqil Respublikamizning ma’naviy yuksalishmiga xizmat qilmoqda.

Xorazm qurilish va me’morchilki san’atining eng qadimdanoq taraqqiy etgan markazlaridan xisoblanadi. Xivaning me’moriy edgorliklari ko‘xna tarixning uzoq ming yilliklariga borib taqaladi. Lekin shaxarning antik va ilk o‘rta asrlarga doir me’moriy edgorliklari bizgacha etib kelmagan. Mavjud edgorliklar esa XUP-XUSh asrlarda, ayniqsa XIX va XX asr boshlarida buned etilgan edgorliklardir. Ana shu tarixiy obidalar o‘z ining nixoyatda go‘z alligi, mustaxkamligi va muxandislik asosida aniq rejalashtirilganligi hamda Xorazmda xos o‘ymakorlik va koshinkorlik san’ati bilan sayqal

[2] Ўша жойда.

topganligi bilan aloxida ajraladi. Zyero, ularda Xorazmning uzoq o‘tmishdagi me’morchilik san’atining noidr an’analari yangi mazmun bilan boyitilgan va rivojlantirilgan. Xivadagi me’moriy edgorliklar Xorazm va Xiva ustalari, o‘ymakor naqqoshlari san’atining yuksak maxoratidan dalolat byeradi. Ular o‘z larining betakror san’ati bilan jaxon tarixida yerqin iz qoldirdilar, kishilik sivilizatsiyasi ravnaqiga bebaho xissasini qo‘shdilar. Darxaqiqat, azim shaxar Xivadagi xar bir tarixiy-me’moriy obida betakror san’at asari xisoblanadi. Bu xaqda yurtboshimiz I.Karimov o‘z ining Xivaning 2500 yilligi munosabati bilan so‘z lagan syermazmun nutqida shunday degan edi:»Xiva yurtimizning ziynati bo‘lib qolmay, umuminsoniy tsivilizatsiya uchun ham xizmat qiladi. Ichon qal’a va Deshon qal’adagi me’moriy edgorliklar, madrasalar xalqimizning asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelaetgan yuksak saloxiyati, nafis maxoratiga, milliy madaniyatimizga qo‘yilgan bebaho edgorlikdir».[1]

Ichon qal’ada Shayx Sayyid Ollovudin va Paxlavon Maxmud maqbaralari, Arabxon madrasasi, Anushaxon hammomi va maschiti, Xivaning g‘arbiy darvozasi enidagi xonning Ko‘shna Ark saroyi, Shyerg‘oziy madrasasi, juma maschit, Toshxovli saroyi, Karvonsaroy majmuasi, Tim, Olloqulixon madrasasi, Muhammad Aminxon madrasasi, Ko‘kminor (Kaltaminor) minorasi me’morchilik san’atining ajoyib maxoratini namoyish etadi.[2]

Xiva shaxri ma’rifatparvar shoh Muhammad Raximxon Soniy (Fyeruz) davrida buned etilgan me’moriy qurilishlar bilan yanada go‘z allashdi. Uning farmoni bilan Xivaning Ichon va Deshon qal’asida 20dan ortiq me’moriy san’at obidalari qad ko‘targan edi. Muhammad Raximxon madrasasi (1871 y), Islom xuja minorasi va madrasasi (1910 y), nurillaboy saroyi va boshqa

[1] Каримов И. Хиванинг 2500 йиллигига бағишланган тантанали маросимда сызлаган нутқи. Халқ сўзи. 1997 йил 22 октябр.
[2] Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана.- Т.,1958.

imoratlar aloxida e’tiborga loyiq. Ko‘xna Ark oldida qurilgan qo‘sh qavatli va peshtoqi koshin bilan naqshlangan bu chiroyli madrasa ko‘xna shaxar go‘z alligini yanada ko‘rkamlashtiradi. Ichon qal’adagi nodir me’moriy san’at asarlaridan xisoblangan Islom xo‘ja madrasasi, maschiti va minorasi xonning ma’rifatparvar vaziri Islom xo‘ja (vaf.1918 y) tomonidan buned etilgan. Bu majmua obidalari ichida aloxida o‘rin tutadi. Pishiq g‘ishtdan ko‘tarilgan qo‘sh qavatli madrasa old tomondan baland, uning enida gumbazli xonaqosi ham bor. O‘sha joyda qad ko‘tarib turgan osmono‘par minora deyarlik bir vaqtda qurilgan. Minoraning balandligi 55 metr, pastdan diametri 10 metr, yuqoriga tomon ingichkalashib boradi. Minora nixoyatda mustaxkam qurilganligi bois zamonning zilzilalariga bardosh byerib kelayapti. Minoraning tanasi ko‘k- oq parchin bilan bezatilgan, belbog‘lari qizg‘ish-sarg‘ish, ular bir-birlarini lmashtirib turadi hamda minoraga ajib go‘z allik baxsh etadi. Minoradagi betakror naqshlar Xiva muxandislari va naqqoshlari maxoratini jaxonga yana bir bor namoyish etadi. Islom Xo‘ja ansamblini buned etishda Bolta Vaisov, Madaminov va xudoybyerdiev kabi Xivaning moxir ustalari, naqqoshlari faol ishtirok etgan.[1] Ana shu me’moriy obidalar xozirda ham xorijiy sayyoxlar e’tiborini o‘z iga jalb etib kelyapti.

Islom Xo‘ja minorasi xozirgi kunda Xivaning ramzi xisoblanadi. O‘sha davrda Muhammad Raximxon Soniy farmoni bilan Deshon qal’adagi Nurillaboy bog‘ida yana bir me’moriy majmua qurilgan. O‘g‘li Asfandiyerxonga atab qurilgan bu majmua tarkibida saroy, bog‘, Asfandiyerxonning ezgi qabulxonasi, qozixona, va boshqa imoratlar bor. Nurillaboy saroyi baland kungurali devor bilan o‘rab olingan. Saroy devorlari pishiq g‘ishtdan mustaxkam ishlangan o‘z iga xos kasrni eslatadi. Saroyning ichki tomonida bir necha xovli, ikki qavatli turarjoy, past-baland ayvonlari bor. Xonning qabulxonasi saroyning sharqida joylashgan.

[1] Инсониятнинг илмий ва маданий мероси - учинчи минг йилликда.- Бухоро ва Хива шащарларининг 2500 йиллигига ба\ишланган хал=аро симпозиум тезислари. Т.,1997.

Xonning ezgi qabulxonasi Nurillaboy saroyi (1910 y) va Evropa uslubida qurilgan eng muxtasham me'moriy edgorliklardandir. Saroyning ichki xonalari ganch o'yma naqshlari, shifti esa xar xil bo'yoqlar yerdamida chiroyli qilib bezatilgan. Xonalarning poli parketdan, eshiklari baland juft ravoqli, dyerazalari bo'lsa Evropacha keng va yorug' qilib ishlangan. Ezgi saroy keng va ravon, chiroyli bezatilgan 4 xonadan iborat. Saroyning xar bir xonasidagi naqshinkor bezaklar o'z iga xos betakror. Uning orqa tomonida katta xovuz bo'lib, boqqa qo'shilib ketgan. Xiva xoni Asfandiyerxon 1918 yili xuddi ana shu ezgi saroy xovuzi bo'yida turkman sardorlari tomonidan fojeali ravishda qatl etilgan edi.[1]

Bulardan tashqari Deshon qal'ada 1911-1913 yillarda Evropa uslubida qurilgan kasalxona, pochta-telegraf va dorixona binolari qimmatli me'moriy edgorliklardan xisoblanadi. Deshon qal'adagi nomlari qayd etilgan tarixiy-me'moriy qurilishlarda maxalliy ustalar bilan birga rus va nemis ustalari ham ishtirok etganlar. Maxalliy ustalardan usta Xudoybyergan xo'ja, usta Nurmat, usta Ro'z mat va boshqalar o'z ining xunarmandligini namoyish etdilar.[2]

Xivadagi fuqarolik turar joy binolarining qurilishi ham o'z iga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Fuqarolik qurilishlari Xiva me'morchilik maktabida aloxida yo'nalish bo'lib, respublikamiz boshqa viloyatlardagi ana shunday qurilishlardan farq qiladi. Avvalo, Xivadagi turar joy binolari qurilishida ajdodlarimizning boy tarixiy tajribasi va an'analari o'z aksini topgan, ular yangi sharoitga muvofiq rivojlantirilgan va boyitilgan. Turar joy qurilishida voxaning tabiiy-iqlim sharoiti ham to'la xisobga olingan. Kupchilik binolar maxalliy qurilish matyeriallaridan foydalanilgan xolda sinchdan va loydan ishlangan. Fuqarolik imoratlari asosan to'rt burchakli

[1] Хоразм тарихи. 2 жилд. - Урганч,1997.
[2] Инсониятнинг илмий ва маданий мероси - учинчи минг йилликда.- Бухоро ва Хива шащарларининг 2500 йиллигига ба\ишланган хал=аро симпозиум тезислари. Т.,1997.

xovli ko‘rinishida bo‘lib, ularda turarjoy xonalari va xo‘jalik xonalari bo‘lgan. Xar bir xovlida baland-past ayvonlari bo‘lgan. Xovlidagi uylar asosan shimol tomonga yo‘naltirilgan bo‘lib, quyosh nuriga teskari qurilgan. Qishloq xovlilari mustaxkam qo‘rg‘onga o‘xshaydi. Qishloq xovlilarining orqa tomoni xovuz va mevali boqqa borib taqalgan. Shaxar va qishloq xovlilaridagi darvozalar, eshik va ustunlar maxalliy ustalar tomonidan o‘yma naqshlar bilan bezatilgan bo‘lib, ularning xar biri Xiva o‘ymakorlik san’atining nodir edgorligi xisoblanadi.[1]

Shunday qilib, ochiq osmon tagidagi muzey shaxar, tarixiy-me’moriy edgorliklar qo‘riqxonasi xisoblangan Xiva asriy va betakror madaniyat va ilg‘or an’analar diyeridir. Xorazm va Xivaning me’moriy madaniyati jaxon madaniyatining ajralmas qismidir.

Shunday qilib Xiva xonliging XIX asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlaridagi gullab-yashnagan davri Xiva xoni MUHAMMAD RAXIMXON SONIY (FYERUZ) (1865-1910yy) davriga to‘g‘ri keladi.

Xiva xoni Muhammad Raximxon Soniy taniqli davlat arbobi, etuk diplomat, adolatparvar va ma’rifatparvar shoir edi. U 47 yil davomida mamlakatni idora qilgan. Sayyid Muhammad Raximxon Soniy davlatni idora qilishda shariat talablariga qat’iy amal qilgan. Ayni vaqtda davlat g‘animlariga nisbatan beshafqat xonlardan edi. Uning faoliyatida adolatparvarlik va xaqgo‘ylik bilan bir qatorda, qattiqqo‘llik, talabchanlik va tashabbuskorlik qo‘shib olib borilgan.[2]

Sayid Muhammad Raximxon Soniy markaziy xokimiyatni mustaxkamlash borasida katta ishlarni amalga oshirgan. Saroyga bilimli tajribali, insofli va dienatli amaldorlarni to‘plagan, ularning xizmatlariga qarab, martabalarini muntazam oshirib borgan. Saroy a’enlariga, viloyat qokimlari va qozilariga davlat xazinasidan ish xaqi belgilagan. Oliy

[1] Гулямов Я.Г. Памятники города Хивы. УзФАН. Серия 1. История, археология. Вып 3. Т.,1941
[2] Матниезов М., Сотли=ов А. Жахон тарихи ва маданиятида Хоразм.- Урганч:Хоразм,1999

kengashning roli va mas'uliyati oshirilgan. Ibroxim xo'ja, Sayid Abdulla xo'ja, Sayid Ilxom xo'ja kabi uzoqni ko'ra biladigan, tashabbuskor shaxslar saroyda xonning bosh vaziri lavozimida xizmat qilganlar. Jasur, uddaburon Yoqub Mextor, Muhammad Murod devonbegi, Muhammad Niez va Raxmatullo Yasovulboshilar, Xasanmurod va xudoyer qushbegilar, Islom Noqib Xo'ja va shular kabi amaldorlar saroyda eng mas'ul lavozimlarni egallaganlar. Shuningdek, Yusuf Xoji Oxun, Muhammad Latif Oxun, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Yusuf Bayoniy kabi ilg'or, taraqqiyparvar olimlar, tarixchi va shoirlar xonning ustozlari va yaqin maslaxatchilari bo'lgan.[1]

Muhammad Raximxon Soniy o'z ining butun hukmronlik davrida el-yurt farovonligi, tinchligi va osoyishtaligi uchun kurashgan mamlakatda ziroat, savdo-tijorat ishlarining rivojlanishi, irrigatsiya qurilishlarining jadallashuvi xaqida tinmay g'amxo'rlik qilgan. Ayniqsa, Xorazmda fan, ma'rifat, adabiet, musiqa va me'morchilik qurilishlariga aloxida e'tibor byergan. Uning davrida Xivada noeb tarixiy, ilmiy, badiiy asarlar yaratilgan, yuksak did bilan me'morchilik edgorliklari buned etilgan. Ana shu boy madaniy va ma'naviy qadriyatlarimiz jaxon madaniyati ravnaqiga munosib xissa qo'shgan. Bu narsa xozirgi kunda jaxon ilmiy jamoatchiligi tomonidan tan oligan.

Muhammad Raximxon Soniy podsho Rossiyasi qo'shinlari Xiva xonligiga asossiz ravishda tajovuz qilganlarida (1873 y) o'z mamlakatini dushmanlardan ximoya qilish uchun barcha chora tadbirlarini ko'rgan. Mamlakat mudofaasiga raxbarlik qilgan. Biroq dushmanning kuchi ikki karra zied bo'lganligi va u yangi qurollar bilan qurollanganligi boisidan xiva askarlaridan ustun kelib, xonlikni bosib olishga muvaffaq bo'lgan. Xiva xonligi chor Rossiyasining mustamlakasiga aylangan. Bu axvol xon faoliyatini qanchalik chegaralab qo'yishiga qaramay, uning ijodiy

[1] Матниезов М., Сотликов А. Жахон тарихи ва маданиятида Хоразм.-Урганч:Хоразм,1999

bunedkorlik ishlarini to‘xtata olmadi. U o‘z ining yaqin mulozimlari bilan bir qancha bor Moskva, Petyerburg va boshqa shaxarlarga borib ulardagi fan va madaniyat soxasidagi yangiliklar bilan tanishib, ularni o‘z mamlakatida tadbiq etishga harakat qildi. 1880 yilda xonning topshirig‘i bilan Xivada birinchi ambulatoriya ochildi. 1884 yilda esa xon saroyida birinchi rus tuzem maktabi ochildi, unda o‘quvchilarga rus tili va boshqa duneviy bilimlarni o‘rgatish yo‘lga qo‘yildi.[1]

1910-1912 yillarda xonning bosh vaziri Sayid Islom xo‘janing tashabbusi va moddiy yerdami bilan Xivada pochta telegraf, kasalxona, dorixona binolari qurilib ishga tushirildi. Muhammad Raximxon Soniy davrida bir qancha maschit, madrasalar qurilgan va xonlikning ko‘p xududlari obodonlashtirilgan. Uning o‘g‘li Asfandiyerxon davrida esa o‘lkada chorizm ma’murlari o‘z siesatlarini o‘tkaza boshlaganlar. Chor Rossiyasi mustamlakasining jabr-zulmini boshidan kechirgan xalq XX asr 20-yillarida Sho‘rolar mustamlakasi zulmi ostiga tushib qoldi. Xonlik tugatilib, Sho‘rolar izmiga bo‘ysundirilgan Xorazm xalq Respublikasi tashkil etildi.

2.3. XX asr boshlarida Xiva xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot

XX asr boshlarida Xiva xonligi chor Rossiyasining qoloq, agrar, feodal protektorati xisoblangan. Kaspiyorti, Turkiston va Markaziy Rossiya sanoat shaxarlari bilan iqtisodiy aloqalari karvon yo‘llari orqali, Kaspiyorti temur yo‘li orqali eki Amudare orqali amalga oshirilgan. Amudareda dare transporti janubi-sharqda Chorjuygacha va shimoliy-sharqda Orol dengizigacha yurgan.

1912 yilga kelganda xonlik axoli soni 600 mingga yaqin kishidan iborat edi.[1] Jumladan, o‘z beklar -60%, turkmanlar - 25%, qoraqolpoqlar,

---

[1] Хоразм тарихи. 2 кисм.-Урганч, 1997

[1] Лобачевский В. Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа,Хивинский район.-Т.,1912.с.102.

qozoqlar va boshqa xalqlar - 15%ni tashkil etgan. O‘zbeklar va qoraqolpoqlar xonlikda o‘troq tarzda shaxar va qishloqlarda yashab, dexqonchilik, xunarmandchilik, savdo bilan shug‘ullanganlar. Amudare quyi (xorazm) oqimi bo‘ylab joylashgan axoli manzillarida o‘z beklar ko‘pchilikni tashkil etgan. Xonlikda butun xokimiyat xon qo‘lida bo‘lib, oddiy xalq davlat boshqaruvida umuman ishtirok etmagan.

Ma’muriy jixatdan Xiva xonligi 23 beklikka bo‘linib, ularga bek eki xokim xon tomonidan tayinlangan. Bekliklar qishloqlarga eki machit qavmlariga (machit jamoalariga) bo‘lingan. Ularga bek tomonidan tayinlangan oqsoqol boshchilik qilgan. Bu tartib asosan o‘z beklar orasida o‘rnatilgan. Xiva turkmanlarining ma’muriy tuzilishda urug‘-qabilaviy tamoyil xukm surgan. Urug‘ guruxi boshida muxrdor (xon muxriga egalik qiluvchi)lar turgan. Xiva yovmudlari 5ta katta elatga bo‘lingan bo‘lib - salak, ushak, okuz, orsukchi, garachuka- 5ta muxdori bo‘lgan. Muxrdorlar xon tomonidan boy va badavlat urug‘ boshliqlari - sardorlar ichidan tanlab olingan. Xar bir urug‘ni sardor boshqargan bo‘lib, u katxudo deb atalgan, mayda urug‘ guruxlariga esa oqsoqollar boshchilik qilgan.[1]

Xiva (eki so‘l qirg‘oq) qoraqolpoqlari asosan Xo‘jayli, Shumanay, Qo‘ng‘irot, qisman Ko‘xna Urganch, Qipchoq-Mang‘it bekliklarida istiqomat qilishgan. Shimoldan va sharqdan bu bekliklar Amudare bilan chegaralangan, g‘arbiy qismi Ustyurt qozoq cho‘li egallagan, janubiy chegarada esa turkmanlar yashagan. Boshqa joylarda qoraqolpoqlar aloxida guruxlar tarzida yashaganlar.[2]

Xiva xonligidagi qozoqlar asosan Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Ko‘xna Urganch bekliklarining chekkasida yashaganlar. Qoraqolpoqlar ko‘pincha dexqonchilik bilan, qozoqlar esa chorvachilik bilan shug‘ullanishgan. Ma’muriy jixatdan qozoqlar va qoraqolpoqlar xokimlarga (beklik va tuman

[1] Гиршфельд В. Военно-статичтическое описание Хивинского ханства..Ч.1.- Т.,1902. С.66
[2] Уша жойда

miqesida), biylarga (urug‘ miqesida), beklarbegilarga (qoraqolpoqlarda qabila miqesida) bo‘ysunishgan.

Barcha mansabdor shaxslar, ovul-qishloq oqsoqolidan boshlab, urug‘ katxudosidan to xongacha va vazirlargacha myeros qolgan bo‘lib, xalqni ezib boyib ketardilar.

Turkman va qozoq ko‘chmanchilari, urug‘ boshliqlari tomonidan boshqarilgan bo‘lib, Xiva xukumatiga bo‘ysunishmagan, chunki urug‘ boshliqlari qurollangan qo‘shinga ega bo‘lishgan. Xon xokimiyati esa mamlakat ichida tartibni saqlash uchun etarli kuchga ega emas edi. Xonlik chor Rossiyasining mustamlakasi bo‘lib, xon o‘z ining boshqaruv apparatini chorizm xizmatiga qo‘ygan edi. Mamlakat iqtisodieti ham chor xukumati manfaatlariga bo‘ysundirilgan edi. Iqtisodietning asosiy tarmog‘i qishloq xo‘jaligi - dexqonchilik va chorvachilik bo‘lgan.

Xonlikdagi o‘z beklar yashaetgan xududlar qadimdan o‘troq dexqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan, sug‘orish vositalariga ega bo‘lgan va paxta, ipak, bog‘dorchilik maxsulotlari etishtirgan. Turkmanlar, qoraqolpoqlar va qozoqlar yashaetgan xududlar esa tashqi va ichki bozorga chorvachilik maxsulotlarini, beda urug‘i, qisman bug‘doy va paxta keltirganlar. Asosiy savdo maxsuloti paxta, beda urug‘i va ipak maxsulotlari bo‘lgan. Rus firmalarining kreditlari bo‘yicha XIX asr oxiridan boshlab paxta etishtirish ommaviy tusga kira boshlagan.

Xiva xonligida qishloq xo‘jaligida axolining 90 foizidan ortig‘i band bo‘lgan.[1] Qishloq axolisining ko‘pchiligi yersiz va kam yerli dexqonlar tashkil etgan. Xunarmandlar shaxarlarda ko‘pchilikni tashkil etgan.

Xiva xonligida barcha yerlar uch kategoriyaga bo‘lingan:

1) podsholik - xon yerlari;

[1] Лобачевский В. Военно статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. - Т.,1912. С.91-92

2) mulk yerlari, ya’ni ayrim shaxslarga myeros mulk sifatida byerilgan yerlar;

3) vaqf yerlari.[2]

Mexnat qurollari juda oddiy bo‘lib, asosan ketmon, o‘moch, yog‘ochdan yasalgan qurollardan foydalanilgan. Sun’iy sug‘orish Xorazm dexqonchiligida muhim ahamiyat kasb etgan. Yerlar asosan chigir yerdamida sug‘orilgan, chigirlar esa ishchi xayvonlar yerdamida harakatga keltirilgan.[3]

Irrigatsiya tizimi (kazu)ni tozalash bo‘yicha ishlarga barcha jalb qilingan. Biroq ishchilarning xon mansabdorlari tomonidan kamsitilishi, och-naxor tutilishi, kasalliklar tufayli irrigatsiya inshootlarini tozalash doimiy ravishda olib borilmagan, natijada esa dalalarga suv yil sayin kam keltirilib, ariqlar qurib, ariqlar bo‘ylarida yashovchi ovul va qishloqlar axolisi boshqa yerlarga ko‘chib ketishgan. Barcha mustamlaka mamlakatlarida bo‘lganidek, Xivada ham og‘ir sanoat yo‘q edi. Chorizm Xorazmni rus sanoati maxsulotlarini sotish bozori va rus fabrika va zavodlari uchun xom ashe etkazuvchi sifatida ushlab qolishga intilgan. Keyinchalik esa Xiva xonligida sanoat korxonalari paydo bo‘lib, ular asosan paxta tozalash, yog‘ ishlab chiqarish va kunchilik zavodlari bo‘lgan. Bu zavodlar katta bo‘lmagan, ularda 15-20 kishi mexnat qilishgan.[1]

Paxta tozalash va eg ishlab chiqarish zavodlaridan tashqari xonlikda kunchilik, beda tozalash, g‘isht zavodlari va boshqa mayda korxonalar bor edi. Ko‘pchilik sanoat korxonalari rus monopoliyalariga qarashli edi. Maxalliy boyvachchalardan Aminov, Salimjonov, Sultonmurodov kabi boylar ham o‘z zavodlariga ega bo‘lgan.

---

[2] Среднеазиатский экономический район. -Т.,1922. С.17.
[3] Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. -Т.:1957. С.267
[1] Узбекистоннинг янги тарихи. 2 китоб. -Т.:Шарк,2000.

Xiva iqtisodietida xunarmandchilik-kosibchilik katta o‘rin egallagan. Xar bir millat, xar bir qabila aloxida xunarda ixtisoslashgan. Xiva o‘z beklari yog‘ochni qayta ishlash (chigir, arava, devor sinchlari va xk) maxsulotlarini, metallga ishlov byerish (ketmon, bolta, o‘roq va b.), tikuvchilik, to‘qimachilik, etikdo‘z lik, kulolchilik, g‘isht, zargarlik buyumlari ishlab chiqishgan. Xiva turkmanlari gilam to‘qishda teng yo‘q bo‘lgan. Nafaqat xunarmand-ustalar, balki deyarli xar bir xo‘jalik gilam, kigiz va boshqa ko‘chmanchi va o‘troq xo‘jalikka kyerakli bo‘lgan maxsulotlar ishlab chiqishgan.

Gilamlardan tashqari Xiva turkmanlari tuya junidan matolar (sholchakmon) tayyerlashgan.

Amudare o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab Turtkuldan Chimboygacha va Orol dengizidagi Zoir oroligacha ruslarning poselkalari barpo etilgan. Petro-Aleksandrovsk (Turtkul), Yangi Urgench, Mang‘it, Xo‘jayli, Toshxovuz, Ilyali, Qo‘ng‘irotshaxarlari kengaytirilgan. Rus poselkalari va savdo punktlarining paydo bo‘lishi, Chorjo‘yda temir yo‘l qurilishi, 1887-1888 yillarda Amudare paroxodchiligining ochilishi xivaliklarning iqtisodiy aloqalarini rivojlantirdi. Xorazm voxasidagi yirik savdo-sanoat markazi Yangi Urgench bo‘ldi. Bu yerda rus savdo firmalarining omborlari, transport idoralari, pochta-telegraf bo‘limlari, rus-Osie Banki bo‘limlari, «Katta Yaroslavl manufakturasi»ning paxta zavodlari joylashgan edi. Umuman olganda Xiva xonligi xududida Rossiyaning 24 turli savdo-sanoat firmalari faoliyat ko‘rsatgan.[1]

So‘l qirg‘oq qoraqolpoqlari va qozoqlar yashovchi xududlarda Xo‘jayli, Qo‘ng‘irotva Mang‘it shaxarlari o‘z beklar, turkmanlar, qoraqolpoqlar va qozoqlarning rus savdogarlari bilan ayirboshlash savdosi markazlariga aylandi.

[1] Непесов Г., Абдуллаев М ва б. Велик ий Октябр и победа народной революции в Хорезме. -Т.:Узбекистан, 1971. С. 18

Ichki va tashqi savdo rivojiga suv transporti ham katta o‘rin tutgan. Maxalliy buxoro, xiva, turkman qayiqlaridan tashqari Amudare flotiliyasida 1911 yilda 6ta paroxod, 13ta temir barja va bir nechta katyer bor edi.[2]

Amudare suv transporti va Kaspiy orti temir yo‘lining rivoji Xiva xonligidagi qishloq xo‘jaligini rivojiga ta’sir etdi va qishloq xo‘jalik maxsulotlari Rossiya, Turkiston, Buxoro bilan savdo aloqalarida asosiy maxsulotlarni tashkil etardi. Xiva xonligidan paxta xom ashesi, beda urug‘i, guruch, qoraqul tyerisi, jun, gilamlar, ipakchilik maxsulotlari, kunchilik xom ashesi eksport qilinardi.[3]

XX asr boshlarida Xiva xonligida yerga, sug‘orish inshshotlariga, chorvaga asosan maxalliy feodallar va rus kapitalistlari egalik qilishgan. Mavjud 450-460 ming desyatina sug‘orma yerlarning 16,6 foizi xonga qarashli edi, 40 foizga yaqini esa - vaqf mulklari edi.[1] Paxta va beda urug‘iga bo‘lgan talabning oshishi natijasida yer egalari o‘z yerlarini yildan-yilga ko‘paytirishga harakat qilardi. Ayniqsa xon a’enlari va zodagonlar qo‘lida ko‘p yer yig‘ilib qolgan edi. Ular axolining 5 foizini tashkil etsa butun yer fondining uchdan bir qismiga egalik qilishardi. Dexqonlarning 30 foizi esa kichik tomorqalari bo‘lib, ishchi xayvonlari yo‘q edi. 11 foiz dexqonlarning umuman yeri yo‘q edi. Xon mansabdorlari ham 2 eki 3 ming tanop yerga egalik qilib, yerlarida 100dan ortiq yarimchi (yollanma) ishchilar va batraklarni ishlatishardi.

Xonlikda vaqf yerlari katta maydonni egallardi. Xonlikda jami 25500 ruxoniylar (eshonlar, mullalar, oxunlar, muftiylar va b.) bo‘lib, ular vaqf tariqasida 471 ming tanop yerga egalik qilishardi. Vaqf yerlariga egalik qiluvchilar sug‘orish inshootlarini tozalash va ta’mirlash ishlaridan ozod qilingan edi. Oliy musulmon ruxoniylari xonlikning siyosiy hayotiga katta

---

[2] Уша жойда

[3] Еженедельник "Внешняя торговля". 1923. №40-41. С. 15-16.

[1] Погорельский И.В. Очерки экономической и политической истории Хивинского ханства в конце Х1Х - начале ХХ в.- Л.,1968.

ta’sir o‘tkazganlar. Ruxoniylar qo‘lida sud ishi (shariat asosida qozilik) va maktablar (maktab va madrasalar) jamlangan edi.[2]

Mamlakatning asosiy axolisi dexqonlardan iborat edi.O‘rta xol dexqonlar yil sayin qashshoqlashib, yersiz kambag‘allarga va batraklar safiga qo‘shilib ketardi. Xonlikda rivojlangan sanoat yo‘qligi tufayli, ko‘pchilik dexqonlar boylar va xon mansabdorlari yerlarida ishlardi. Xiva xonligida asosan dexqonlar choyrikorlik (xosilningsh to‘rtdan bir qismi byerilardi) bilan shug‘ullanishar edi. Mulk yerlar, ayniqsa podsholik va vaqf yerlari dexqonlarga kesimga - xosilning beshdan bir qismidan ikkidan 1 qismigacha -ijaraga byerilardi. Bu yerlar xalq orasida «kesim yer» deb atalardi. Ijara shartlari juda og‘ir edi. Butun daromad maxalliy boylar va rus kapitalistlari qo‘liga tushardi.

Xonlik axolisining 12 foiziga yaqini savdo va sudxo‘rlik bilan shug‘ullanardi. Iqtisodiy jixatdan ular butunlay rus savdo-sanoat kapitaliga qaram edi. Yirik yer egalari o‘z daromadlarini rus korchalonlariga sanoat va savdoni rivojlantirish uchun byerib, o‘rniga foiz xisobida daromad olishardi. Sudxo‘rlar kambag‘allarni turli yo‘llar bilan aldab, ularga kredit byerib, o‘z lariga qaram qilib qo‘yardi.

Xonlikda shaxar va qishloq xunarmandlari va kosiblari ham katta ijtimoiy guruxni tashkil etardi. Ular asosan o‘rta asrlardan saqlanib qolgan ustaxona tashkiloti asosida ishlab, ustalar, usta yerdamchilari va shogirdlardan iborat edi. Mamlakatda ko‘plab mayda kosibchilik korxonalari bo‘lib, ular ipak va mato ishlab chiqarardi, tyerini qayta ishlardi, kulolchilik va chinni idishlar, chigir, arava va boshqa buyumlar ishlab chiqishardi. Biroq asta-sekin maxalliy xunarmand va kosiblarning

[2] Погорельский И.В. Очерки экономической и политической истории Хивинского ханства в конце Х1Х - начале ХХ в.- Л.,1968.

maxsulotlari rus sanoatining buyumlari bilan raqobatga bardosh byerolmay, kamayib boravyerardi.[1]

Xonlar, beklar, muxrdorlar, xokimlar, amloqdorlar, katxudolar, mulkdorlar va vaxmdorlar o‘z mulklarida to‘la hukmron bo‘lib, oddiy mexnatkashlarning hayoti, mulki, oila a’zolari ustidan xo‘jayinlik qilardi.

Shunday qilib, XX asr boshlarida Xiva xonligida maxalliy va rus korchalonlari foyda ketidan quvlab hamma boyliklarni o‘z qo‘lida to‘plagan edi. Oddiy xalq esa ikki tomondan ezilib kelavyerdi.

XIX asrning oxirida Xiva xonligida juda ko‘p eski maktablar ishlab turdi. Bular asosan boshlang‘ich hamda oliy diniy ta’lim byeruvchi madaniy o‘choqlar edi. Ilg‘or domlalar diniy ta’lim bilan cheklanib qolmasdan duneviy ta’lim ham byerardi. Eski maktabda kambag‘allarning bolalari birinchi bosqichdagi boshlang‘ich ta’lim-tarbiyadan so‘ngg o‘qishni tamomlagan deb xisoblanardi. O‘ziga to‘q oilalarning farzandlari maktabdorlar qo‘lida yana 8 yil shogird bo‘lib, o‘qishni davom ettirar edilar. Keyin ularning bir qismi olgan bilimlarini savdo-sotiq ishlarida, kosibchilikda qo‘llar, ba’zilari xattotlikni kasb qilib olar, iqtidorli qismi esa madrasaga kirib o‘qishni davom ettirar edi. Eski maktabda odatda 10-15 nafar o‘quvchi taxsil olgan. Lekin madrasalar o‘z xashamatliligi, jozibadorligi bilan aloxida ajralib turgan.[1]

Ma’lumki, o‘rta asrlarda madrasalarda jaxonshumul olimlar etishib chiqan va ular fanning beshigini tebratganligi dunega ma’lumdir. Bittagina Ma’mun akademiyasi vakillari madaniyatimizga ulkan xissa qo‘shgan allomalarni etishtirib byergan. Ammo XIX asr oxiriga kelib madrasalar bunday nufuzini yo‘qotib, maxalliy, o‘lka ahamiyatiga ega mutaxassislar etkazuvchi darajaga tushgan edi. Bunga xonlarning o‘z aro urushlari, so‘ngra chor Rossiyasining o‘lkani xarob qiluvchi urushlari sabab bo‘ldi. Madrasalar

[1] Джаббаров И.М. Городское ремесло узбеков Хорезма в конце Х1Х-начале ХХ вв. -М.,1954.
[1] Бобобеков Х ва б.Узбекистон тарихи. -Т.Укитувчи, 1994

ta’limida diniy ta’limotga xaddan tashqari e’tibor byerilib, duneviy fanlarga g‘amxo‘rlikning pasayib ketishi o‘z ining salbiy ta’sirini ko‘rsatdi.

Xiva kabi yirik shaxarlarda madrasalar qurilishi davom etdi. Yirik madrasalar oliy ta’lim vazifasini bajarib, ularda bir necha mudarrislar dars byerganlar. Mudarrislarning ko‘pchiligi diniy falsafa, musulmonchilik xuquqlari, fiqx, shariat qonunchiligidan ta’lim byerar edilar.

Danilevskiy G. va Kostenko L.larning ma’lumotlariga ko‘ra 1851 yilda Xiva shaxrida yirik Qutlimurod-inoq, Olloqulixon, Muhammad Aminxon, Muhammad Raximxon va boshqa madrasalar bor edi. XIX asr o‘rtalarida Mang‘itda bitta, Yangi Urgenchda ikkita, Xazoraspda bitta madrasa faoliyat yurgizardi.[1] Xonlikdagi 50% madrasalar poytaxt Xivada joylashgan edi. Madrasalarga maktab kursini bitirganlar, asosan ruxoniylar va badavlat oilalar bolalari o‘qishga kelardi. Qiz bolalar madrasaga qabul qilinmasdi. Madrasalar vaqf yerlaridan olinadigan daromadlardan madrasa asoschisi eki boshqa shaxslar tomonidan mablag‘ bilan ta’minlanardi. Odatda xar bir madrasaning vaqf mulklari bor edi. Madrasada 3-4, xatto 8-10 yil taxsil olinardi. Madrasa bitiruvchilari ruxoniy mansablar va xonlikning davlat muassasalaridagi mansablarga tayinlanardi.

O‘rta madrasalarda arab-fors grammatikasi, mantiq, shariat asoslaridan saboq byerilardi. Otinoyilar qizlarning savodini chiqarganlar. O‘rta Osie Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin, Qozon shaxridan bosmaxonada bosilgan Qur’on va xaftiyaklar, Xindiston va Yerondan shoirlarning litografiyada bosilgan to‘plam-devonlari olib kelina boshlandi. Biroq musulmon maorif shohobchalari genyeral-gubyernatorlik xomiyligidan maxrum qilindi, chunki genyeral-gubyernator bu milliy madaniyat tarqatuvchi ilm dargoxlarini yoqtirmas edi.

[1] Билалов Г.М. Из истории культуры и просвещения в Хорезме.- Ургенч, 1957. С.30

XIX asr oxirida O‘rta Osiening boshqa shaxarlari kabi Xiva, Yangi Urganchda yangi usul maktablar ochila boshlandi. Yangi usul maktablari o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘ygan: 1) esh avlodga xozirgi zamon hayotida kyerak bo‘ladigan bilimlar byerish; 2) eski usul ta’lim mazmuniga epishib olmasdan, zamonaviy ta’lim usullarini qo‘llash. Maktablarda sinf-dars tizimiga o‘tildi.

1905 yilda Urgench shaxrida yangi usul maktabi ochilgan edi. Maktabni tashkil etish tashabbuskorlari maxalliy va tatar zielilari va savdogarlari edi. Ular pul yig‘ib Qozon gubyernasidan o‘qituvchi Xuseyn Kushaevni taklif etishdi. 1907 yilda pul yig‘ib , yer uchastkasi sotib olishdi, maktab binosini qurdirishdi, o‘qituvchilar uchun uy solishdi. 1905 yilda bu maktabda 3ta o‘quvchi o‘qigan bo‘lsa, 1914 yilga kelib 30ta o‘g‘il bola va 20ta qiz bola taxsil ola boshladi. 1914 yilda maktabga Rossiyadan o‘qituvchi Bakirov o‘z singlisi bilan ishga kelishdi. Ularga maosh to‘lash uchun pul ota-onalardan yig‘ib olinardi.Yangi usul maktabi o‘z asosida diniy xaraktyerni saqlab qolib, ayrim duneviy fanlarni ham o‘rgatardi. Maktabda asosan badavlat oilalar farzandlari o‘qishar edi.[1] Bu maktab Yangi Urgenchda 1917 yilgacha faoliyat yuritib, so‘ngra Amudare viloyatidagi Turtkul shaxriga ko‘chirildi.

1911 yilda Xiva shaxrida yangi usul maktabini xonning birinchi mansabdori Vazir Akbar Sayid Islom Xo‘ja ochadi. 1912-1913 yillarda yangi usul maktabi uchun Islom Xo‘ja madrasida evropacha uslubdagi bino quriladi. Maktabda 5 yil saboq olish ko‘z da tutilardi. 1 sinfga 6 eshdagi bolalar qabul qilinardi. Diniy bilimlar bilan birgalikda maktabda matematika, xusnixat, Xiva tarixi, geografiya, chizmachilik, qurilish ishi, qisman rus tili o‘qitilardi.[2]

---

[1] Билалов Г.М. Из истории культуры и просвещения в Хорезме.- Ургенч, 1957. С.30
[2] Уша жойда.с.31.

Islom-xo‘ja vafotidan so‘ng(1913 yilda) maktabda tartibsizliklar boshlandi, mablag‘ etishmay qoldi, o‘quvchilar soni qisqardi. 1918 yilda maktab o‘z faoliyatini to‘xtatdi.

Yangi usul maktablarida darsning teng yarmi dinni o‘rganishga, qolgan qismi esa ilmiy bilimlar byerishga ajratildi. Biroq bu maktablar milliy madaniyat taraqqietiga yo‘l ochaetganligi sababli, rus ma’muriyati ularni xatarli deb topishdi va ularni epib qo‘yish uchun turli bahonalarni ishga solishdi.

Rossiya mustamlakachiligi Turkiston, jumladanXiva xonligi axolisini rus muxitida tarbiyalash, so‘ngra ruslar bilan maxalliy xalqlarni aralashtirib yuborib, bu yerda evropacha turmush tarzining g‘alabasini to‘la ta’minlashga intildi. 1880 yilda impyeriya Davlat Kengashida maxalliy axoli bolalarini ruslar bilan birgalikda o‘qitish masalasi ko‘tarilib, unga xarbiy vazir, genyeral-ad’yutant graf D.Milyutin, maorif vaziri graf Tolstoylar rozilik byerishdi. Bu tadbirning ruslashtirish uchun katta yerdam byerishi ko‘z da tutildi. Rus-tuzem maktablarida o‘quv kuni ikki qismdan iborat bo‘lib, dastlabki mashg‘ulotlarni rus o‘qituvchisi (o‘quv, ezuv, xisob), ikkinchi qismida esa o‘z bek domlasi olib borar edi.

Xivada rus-tuzem maktabida 1887 yil boshida o‘qituvchi sifatida Shuruxan uchastkasi boshlig‘ining idorasida mirza bo‘lib xizmat qilgan Semen Brilovskiy taklif etildi. 1887 yil martida bu maktabda 11ta o‘quvchi bo‘lib, ulardan 6tasi xon tomonidan ta’minlanardi. Maktabda darsliklar yo‘q edi, ko‘rgazmali qo‘rollar kam edi. Brilovskiy Petro-Aleksandrovskdagi bilim yurtidan vaqtincha foydalanish uchun 15ta azbuka keltirgan edi.

Xiva xoni o‘z yaqinlari bolalaridan o‘z iga tarjimonlar tayyerlash maqsadida 1883 yilda saroyda rus o‘qituvchisi bo‘lgan maktab tashkil etishga urinadi. Bu maktabga Petro-Aleksandrovskdagi 1874 yilda ochilgan

shaxar ikki sinfli bilim yurti o‘qituvchisi N.Sazontov jo‘natiladi. [1] Bu maktab Turkistondagi boshqa rus-tuzem maktablari singari 1884 yildan rivojlana boshladi. 1891-1892 yillardan bu maktab ham Turkiston o‘quv boshqarmasi xujjatlarida rus-tuzem maktabi det atala boshladi.

Keyinchalik maktabda Turkiston o‘qituvchilar seminariyasining bitiruvchilari Ibragimov, Muhammad Ali Kuchurboevlar jo‘natildi. Biroq oylikning o‘z vaqtida byerilmaganligi tufayli ular o‘z vazifasida uzoq muddat ishlab qolmaganlar.

O‘sha davr maktablarida sinf xonalar deyarli bo‘sh edi. Sinfxonalarda geografik xarita va bir nechta kitobdan tashqari xech narsa yo‘q edi. 1894 yilda Xivadagi rus-tuzem maktabi Petro-Aleksandrovskga ko‘chirildi. Biroq baribir maktab o‘z ishini yaxshilay olmadi, o‘quvchilar kam qatnar edi, intizom ham bir axvolda edi, ota-onalar esa farzandlarining o‘qishiga befarq qarardilar. 1896 yilda maktab yana Xivaga ko‘chiriladi. Xiva bolalari rus tilini o‘rganishni xoxlamasdi. Maktabda o‘quvchi etishmasdi. 1898 yil boshida Amudare bo‘limi boshlig‘i Turkiston o‘lkasidagi bilim yurtlar bosh inspektoriga ezgan xatida, 12 yil mobaynida faoliyat yuritaetgan Xiva rus-tuzem maktabi bironta ham rus tilida qoniqarli eza, o‘qiy va gapira oladigan o‘quvchi etishtirmaganligini ta’kidlaydi.[1] 1898 yil sentyabrida Xiva xonining talabi bilan Xiva rus-tuzem maktabi epildi. Endi Xivadan Petro-Aleksandrovskdagi intyernatga 10 o‘quvchi uchun joy ajratildi. Ularni o‘qitish va ta’minlash uchun Xiva xoni bilim yurtiga xar yili 1250 rubl o‘tkazishi kyerak edi. Biroq bu mablag‘ning ajratilmaganligi tufayli uquvchilar o‘qishni tashladilar. Bilim yubtida Xiva xoni tomonidan jo‘natilgan 4ta o‘quvchi qolib, ulardan faqat ikkitasi - 1ta xivalik va 1ta rus o‘quvchi bilim yurtini 1907 yilda bitirishga muvaffaq bo‘ldi.[2]

---

[1] Билалов Г.М. Из истории культуры и просвещения в Хорезме.- Ургенч, 1957. С.31
[1] Билалов Г.М. Из истории культуры и просвещения в Хорезме.- Ургенч,1957
[2] Уша жойда. С.28

Shunday qilib, xon va uning xukumati tomonidan bolalarni rus-tuzem maktablarida tarbiyalash va o‘qitish uchun e’tibor byerilmaganligi tufayli Xivada tashkil topgan rusqtuzem maktabi 14 yil faoliyati davomida bironta bitiruvchi chiqarmadi, Petro-Aleksandrovskdagi bilim yurti esa 9 yil mobaynida faqat 2ta bitiruvchi chiqardi. Bu bitiruvchilar ham xonlik xududida yashamagan edi.

1912 yil sentyabrida Muynokdagi rus axolisi o‘z bolalarini o‘qitish uchun mablag‘ yig‘ishdi. Maktab binosi va o‘qituvchilar uchun uy qurildi. Biroq Sirdare viloyati xalq bilim yurtlari direktori Turkiston o‘lkasi bosh inspektoridan «O‘zboshimchalik bilan ochilgan maktabni epish va aybdorlarni jazolash» to‘g‘risida farmoyish chiqarishni so‘radi. Biroq maktab epilmadi, chunki bu xudud Xiva xonligiga qarashli bo‘lib, Amudare bo‘limiga kirmagan edi. 1912-13 o‘quv yilida Muynok maktabida 50ta, 1913-14 o‘quv yilida - 65ta, 1914-15 o‘quv yilida 40ta o‘g‘il bola va qiz bola o‘quvchilar o‘qir edi. Biroq Munokning rus axolisi bir necha bor Turkiston o‘lkasi ma’muriyati va Xiva xonidan davlat xisobidan boshlangich bilim yurti ochishni so‘ragan bo‘lsa ham, ularning talabi amalga oshirilmadi.[1]

Yangi Urgench shaxrida ko‘p rus axolisi yashagan bo‘lsa ham rus maktabi yo‘q edi. O‘ziga to‘q oilalarning bolalari o‘qituvchi O.F.Frantseva uyiga qatnab o‘qishardi. Bu oila boshliklari ko‘pincha turli firma, kompaniyalar xizmatchilari bo‘lib, maktab uchun mablag‘ ajrata olmasdilar. Shunga qaramasdan 1913 yil boshida Yangi Urgenchda rus-tuzem maktabi ochish uchun 3 ming rublga yaqin mablag‘ yig‘ildi. Rus axolisining arizasiga ko‘ra xon Yangi Urgench markazida maktab qurish uchun 3 tanop yer va 4 ming rubl mablag‘ ajratdi. Yangi Urgenchda o‘quv yurtlari tashkil etish va mablag‘ bilan ta’minlash maqsadida 1913 yil ezida «Yangi Urgench

[1] Билалов Г.М. Из истории культуры и просвещения в Хорезме.- Ургенч, 1957. С.33

savodxonlik jamiyati» tuzildi. Uning maqsadi Yangi Urgenchda «Yangi Urgench shaxar boshlangich bilim yurti» deb nomlangan o‘quv dargoxi ochish edi. Bilim yurtida o‘g‘il va qiz bolalar, diniy e’tiqodi va millatidan qat’iy nazar, teng o‘qitilishi va tarbiyalanishi mo‘ljallangandi. O‘quvchilarning yarmi xristian, yarmi musulmon e’tiqodidagi bolalar bo‘lishi rejalashtirilgan edi. Ular o‘z ustavini ishlab chiqib, tegishli joylarga jo‘natishdi. Biroq bu tashabbus Amu-dare bo‘limi boshlig‘i, Sirdare viloyati xarbiy gubyernatori va Turkiston o‘lkasi oliy ma’muriy organlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanmadi.

Chor Rossiyasi xalqlarning qamog‘i bo‘lgan. Chor Rossiyasining ko‘psonli xalqlari va elatlari butunlay xuquqsiz edi, turli kamsitishlarga duchor qilingan edi. Bo‘ysundirilgan xalqlarning milliy o‘z iga xosligi toptalgan edi. Chor xukumati xar qanday milliy madaniyat ko‘rinishlarini avval boshdaeq bug‘ib qo‘yishga harakat qilardi. Bunday siesat istilo etilgan mamlakatlarning, jumladan Xiva xonligining ham iqtisodiy va madaniy rivojiga xalakit byerardi.

O‘zbek madaniyatiga salmoqli xissa qo‘shgan xorazmlik Xudoybyergan Devonov (1879-1940) ning xizmatlari diqqatga sazovordir. U O‘rta Osieda XIX asrning oxiri-XX asrning boshlarida milliy vakillarimizdan birinchilardan bo‘lib fotografiya laboratoriyasiga asos soldi. U birinchi o‘z bek opyeratori, kinematografidir. Uning xizmatlari tufayli Xiva xonligining XIX asrning oxiri-XX asrning boshlaridagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayoti va xalqning og‘ir axvoli kino lavxalarida jonlandi va noeb manbalardan bo‘lib qoldi.

Avaz O‘tar o‘g‘li (1884-1919) ijtimoiy adolat uchun kurashgan shoirlardandir. U Xivada tavallud topdi. Uning otasi tabib va sartarosh bo‘lib, Xiva adabiy muxitida ko‘z ga ko‘ringan arboblar bilan kuchli hamkorlik qildi. She’riyatga moyilligi uchun ularni o‘z uyida tez-tez to‘plab,

she’rxonlik kechalari uyushtirar edi. Ana shu kechalardagi qizg‘in baxslar , munozaralar, jozibali she’rxonlik Avazni ham adabiet gulshaniga etakladi. Natijada iste’dod soxibi Avaz O‘tar o‘g‘li juda yerta Xorazm voxasining nomdor shoiri bo‘lib tanildi. Avaz she’riyatida demokratik yo‘nalish ustundir. Uning «Ulamolarga», «Sipoxiylarga», «Xarb vaxshiylari», «Maktab», «Til», «Xurriyat» kabi she’rlari buning dalilidir. Avazning ijtimoiy-falsafiy qarashlari mustabid tuzumga qarshi edi. Shuning uchun u xonlikka qarshi muxolifiyatda bo‘lgan dastlabki tashkilot «Yosh xivaliklar» bilan aloqa o‘rnatdi.

Vatanparvar, xalqparvar shoir millatini jaxonda xar tomonlama rivojlangan ellar qatorida bo‘lishini istaydi. Unga ma’rifat orqali, fidoyilik bilan kurashib yerishish mumkinligini ishonch bilan kuylaydi.

X U L O S A

Qo‘ng‘irot– yirik o‘z bek qabilalaridan biri. XX asr boshlarida o‘z beklar tarkibida 134,6 ming kishini tashkil qilib, asosan O‘zbekistonning janubiy xududlarida, shuningdek, Zarafshon vodiysida, Xorazm va qisman Shimoliy Afg‘onistonda yashaganlar.[1]

Qo‘ng‘irotlar qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, boshqird, no‘g‘ay va boshqa turkiy xalqlar tarkbiga ham kirganlar. Ilk ajdodlari Mo‘g‘uliston cho‘llarida yashagan. 13 asrda ular Chingizxon qo‘shinlari bilan O‘rta Osiyo xududiga kelib o‘rnashganlar. 14 asrda Qo‘ng‘irotlarning katta bir qismi Xorazm xududiga ko‘chib o‘tgan va Xorazmning so‘fiylar sulolasi faoliyatida faol ishtirok etganlar. Vaqt o‘tishi bilan ularning etnik tarkibiga o‘g‘uz, qipchoq va boshqa turkiy xalqlarga mansub elementlar qo‘shilgan. 14-15 asrlar davomida Qo‘ng‘irotlarning ayrim guruxlari Xurosonga, Shimoliy Afg‘onistonga va Xisor-Shyerobod vodiysiga kelib o‘rnashganlar. Xorazm xududiga ko‘chib o‘tgan Qo‘ng‘irotlar keyinchalik Xorazmning siyosiy hayotida faol ishtirok etganlar. 18 asrning 2 yarmi – 19 asr boshlarida Xiva xonligini o‘z bek Qo‘ng‘irotlari sulolasi boshqargan. Bu sulola vakillari o‘z bek davlatchiligi tarixida, ayniqsa madaniyat soxasida muhim iz qoldirgan.

Umuman olganda mazkur monografiya ishdan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin.

1770 yilda Xiva xonligida xokimiyat amalda Qo‘ng‘irotlar qabilasining qo‘liga o‘tdi. Qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligi o‘rnatilishi arafasida Xivada markaziy xokimiyat amalda barham topgan edi. Qo‘ng‘irotqabilasining yo‘lboshchisi Muhammad Amin inoq 1770 yilda xokimiyatni egalladi. Xiva xonligining axolisi 800 ming nafarga yaqin bo‘lib, ularning 65 % ni o‘z beklar tashkil etgan. Xonlik 15 ta viloyatga bo‘lingan. Xonlikdagi asosiy

[1] Ызбек совет энциклопедияси. 14 том. –Т., 1980. 276 б.

soliq - salg‘ut – yer solig‘i xisoblangan. Axoli begar, qazu, xachi, otlanuv kabi majburiyatlarni o‘tagan.

Xiva Qo‘ng‘irotlari sulolasi

Muhammad Amin	1770-1790
Avaz	1790-1804
Eltuzarxon	1804-1806
Muhammad Rahimxon	1806-1825
Olloxqulixon	1825-1842
Rahimqulixon	1842-1845
Muhammad Aminxon	1845-1855
Abdullaxon	1855-1856
Qutlug‘murodxon	1856
Sayid Muhammadxon	1856-1864
Muhammad Raximxon II	1864-1910
Asfandiyerxon	1910-1918
Sayid Abdullaxon	1918-1920

O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati tarixi, jumladan Xorazm madaniyati tarixi ham qadim zamonlarga borib taqaladi. Xorazm (XVIII asrdan boshlab Xiva xonligi) qadimdan insoniyat madaniyatining o‘choqlaridan biri bo‘lgan. Biroq bir qator tarixiy sabablarga ko‘ra (bosqinlar, o‘z aro kurash va kelishmovchilik va b.) Xorazm voxasi asta-sekin siyosiy va madaniy jixatdan qoloq davlatga aylana bordi. XIX asr 2 yarmida Xiva xonligi chor Rossiyasining vassali bo‘lib qoldi.

Xorazm me’morchilik oqimi badiiy uslubi jixatidan mukammal ijodiy maktab yarata oldi. Buni maktabning o‘lmas me’morchilik obidalari

timsolida yaqqol ko‘rish mumkin.Bu ko‘rinish XX asr boshlarigacha qurilishi davom ettirilgan Dishan qal’a majmuida ham namoen bo‘ladi.

XIX asrning oxiri-XX asrning boshlarida tarixnavislik ancha rivojlandi. Bu yillarda tarix o‘lkashunosligi sezilarli ilgari siljigan edi.

1874 yilda Xivada saroy litografiyasi ochildi. Biroq unda nashr etilaetgan asarlar savdoga chiqarilmasdi, balki xonga yaqin bo‘lgan shaxslarga tarqatilardi. Rus savdogarlari grammofon, samovar kabi buyumlarni olib kelishdi. Fotografiya ochildi. Badavlat shaxslar evropacha uslubda binolar qura boshlashdi. Ayrim uylarga pechlar, yog‘och pollar, oynali dyerazalar paydo bo‘ldi.

1880 yil oxirida Xivada birinchi ambulatoriya punkti ochildi. Unda Rossiyadan kelgan meditsina mutaxassislari ishlay boshladi. Avval bu yerda feldshyer Popov, Kasyanenkolar axoli meditsina xizmati ko‘rsatgan bo‘lsalar, 1901 yil aprelida Xivaga vrach Shumeyko jo‘natildi. U Xivaga doimiy ishlash uchun kelgan birinchi vrach edi.[1]

Xiva xonligida, butun musulmon Sharqida bo‘lgani kabi, ikki xil maktab mavjud edi: quyi - maktab, o‘rta va oliy - madrasa. Maktabda boshlang‘ich ta’lim byerilib, diniy kitoblarni mutolaa qilishga o‘rgatilardi va shariat asoslarida tarbiya byerilardi.[2]

Madrasada taxsil olaetganlar o‘z ona tilida yozish va o‘qishni o‘rganmay, rasmiy til xisoblangan arab tilida o‘qitilardi. Arab tili esa ko‘p xollarda o‘z bek-o‘quvchilar uchun murakkab xisoblanardi va ular o‘qish va ezishda qiynalardi. Ko‘pincha Qur’on suralari yodlab olinardi. Yuqori kurslarda mantiq, fiqx va boshqa fanlar o‘qitilardi.

Xonlikda shaxar va qishloq xunarmandlari va kosiblari ham katta ijtimoiy guruxni tashkil etardi. Ular asosan o‘rta asrlardan saqlanib qolgan ustaxona tashkiloti asosida ishlab, ustalar, usta yerdamchilari va

[1] Билалов Г.М. Из истории культуры и просвещения в Хорезме.-Ургенч, 1957. С.25
[2] Билалов Г. Из истории культуры и просвещения в Хорезме.- Ургенч,1957. С.19

shogirdlardan iborat edi. Mamlakatda ko‘plab mayda kosibchilik korxonalari bo‘lib, ular ipak va mato ishlab chiqarardi, tyerini qayta ishlardi, kulolchilik va chinni idishlar, chigir, arava va boshqa buyumlar ishlab chiqishardi. Biroq asta-sekin maxalliy hunarmand va kosiblarning mahsulotlari rus sanoatining buyumlari bilan raqobatga bardosh berolmay, kamayib boraverardi.[1]

Xonlar, beklar, muxrdorlar, xokimlar, amloqdorlar, katxudolar, mulkdorlar va vaxmdorlar o‘z mulklarida to‘la hukmron bo‘lib, oddiy mexnatkashlarning hayoti, mulki, oila a’zolari ustidan xo‘jayinlik qilardi.

Shunday qilib, XX asr boshlarida Xiva xonligida maxalliy va rus korchalonlari foyda ketidan quvlab hamma boyliklarni o‘z qo‘lida to‘plagan edi. Oddiy xalq esa ikki tomondan ezilib kelavyerdi.

Chor hukumati har qanday milliy madaniyat ko‘rinishlarini avval boshdayoq bug‘ib qo‘yishga harakat qilardi. Bunday siyosat istilo etilgan mamlakatlarning, jumladan Xiva xonligining ham iqtisodiy va madaniy rivojiga halaqit berardi.

[1] Джаббаров И.М. Городское ремесло узбеков Хорезма в конце Х1Х-начале XX вв. -М.,1954.

МАЛАЯ ОРДА
СРЕДНЯЯ ОРДА
БОЛЬШАЯ ОРДА
АРАЛЬСКОЕ МОРЕ
Сырдарья
Туркестан
КОКАНДСКОЕ ХАНСТВО
ХИВИНСКОЕ ХАНСТВО
Чимкент
Амударья
Ташкент
Наманган
Хива
Коканд
Бухара
Самарканд
Кашкар
ТУРКМЕН
БУХАРСКОЕ ХАНСТВО
Яркент
ПАМИР
Мерв
Нишапур
Машхад
АФГАНИСТАН
КАШМИР

Rasm – 1.

Rasm – 2.

Rasm – 3.

Rasm – 4.



Rasm – 5.

Rasm – 6.

Rasm – 7.

Rasm – 8.



XIX asr o‘rtalarida Xiva xonligi

Rasm – 9.

Rasm – 10.

Rasm – 10.

Rasm – 11.

Foydalanilgan adabyotlar ro‘yxati:

1. Каримов И. Хоразм вилояти халк депутатлари Кенгашида сўзлаган нутқи.- Халқ сўзи. 1996 йил 17 март.
2. Каримов И. Хиванинг 2500 йиллигига бағишланган тантанали маросимда сўзланган нутқи. Халк сўзи. 1997 йил 22 октябр.
3. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.- Т.:Шарқ, 1998
4. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари.- Т., 1991
5. Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.:Чўлпон, 1992
6. Баёний. Шажарайи Хоразмшохий.- Т.:Камалак, 1991
7. Билалов Г.М. Из истории культуру и просвехения в Хорезме. - Ургенч, 1957
8. Бобобеков Х. Ўзбекистон тарихи. – Т.:Ўқитувчи, 1994
9. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. -Т.,1957. С.267.
10. Гулямов Я.Г. Памятники города Хивы. -УзФАн. Серия 1. История, археология. Вўп.3.-Т.,1941.
11. Гиршфельд В. Военно-статистическое описание Хивинского ханства. Ч.1.- Т.,1902.- С.66.
12. Джаббаров И.М. Городское ремесло узбеков Хорезма в конце XIX - начале XX вв.- М., 1954.
13. Еженедельник «Внешняя торговля».- 1923. №40-41.
14. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи.- Т.:Шарқ, 2000
15. Инсониятнинг илмий ва маданий мероси - учинчи минг йилликка.- Бухоро ва Хива шахарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари.- Т.,1997
16. Кун А.Л. Заметки о Хивинском ханстве. -Туркестанские ведомости. 1878. №40.
17. Лобачевский В. Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа.Хивинский район.- Т.,1912.с.102.

18. Матниёзов М., Сотликов А. Жахон тарихи ва маданиятида Хоразм.- Урганч:Хоразм, 1999.
19. Непесов Г., Абдуллаев М. ва б. Великий Октябр и победа народной революции в Хорезме. -Т.:Узбекистан,1971.
20. Норқулов Н., Жўраев У. Ўзбекистон тарихи.- Т.:Шарқ, 2000
21. Погорельский И.В. Очерки экономической и политической истории Хивинского ханства в конце XIX -начале XX в. - Л.:ЛГУ, 1968
22. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Видаюхиеся памятники архитектуры Узбекистана.- Т.,1958
23. Среднеазиатский экономический район.- Т.,1922. С.17.
24. Толстов С.П. Древний Хорезм.- М.,1948.
25. Хива - жахон маданияти дурдонаси.- Урганч, 1997
26. Хоразм тарихи. 1 ва 2 жилдлар.- Урганч,1997
27. Ўзбекистон тарихи.- Т.:Университет,1997
28. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2 китоб.-Т.,Шарк,2000.
29. Ўзбек совет энциклопедияси.14 т. Т., 1980
30. https://president.uz/oz/lists/view/5095

M U N D A R I J A

Kirish……..……3-15

I bob. Qo‘ng‘irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi davridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat……..16-39

1.1. Qo‘ng‘irotlar sulolasi tarixining tarixiy manbalarda yoritilishi……..….16-28

1.2. Qo‘ng‘irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi davridagi O‘rta Osiyo xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat……...28-39

II bob. O‘zbek davlatchiligi tarixida Qo‘ng‘irotlar sulolasining o‘rni…40-78

2.1.Qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmdorlari davrida Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot…….....40-47

2.2. Qo‘ng‘irotlar davrida Xiva xonligidagi madaniy hayot……..47-64

2.3. XX asr boshlarida Xiva xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot……64-78

Xulosa …….……79-82

Ilovalar.....83-88

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati……..…..89-90

O.R.NAZAROV, O.SH.KANIMKULOV, R.A.NE'MATOV

MONOGRAFIYA

O‘ZBEKISTON DAVLATCHILIGI TARIXIDA QO‘NG‘IROTLAR SULOLASINING TUTGAN O‘RNI

Muharrir: I. Tursunova
Badiiy muharrir: B. Haydarov
Kompyuter sahifalovchi: N. Fayziyeva
Korrektor: Sh. Hikmatova

Nashr. lits. AI № 276 15.06.2015.
Bosishga ruxsat etildi. 31.05.2022.
Bichimi 60x84 1/16 Offset qog'ozi.
Times New Roman garniturasi.
Shartli bosma tabog'i 4,5. Nashr hisob tabog'i 3,6.
Adadi 100 nusxada. Buyurtma № 07-06.

"LESSON PRESS" MCHJ nashriyoti.
100071. Toshkent, Komolon ko'chasi 13.

«ZUXRA BARAKA BIZNES» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri Bunyodkor shoh ko‘chasi 27 A–uy.